

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
IJTIMOIY-IQTISODIY FAKULTETI
TARIX FANLARI KAFEDRASI
IV KURS 402-GURUH TALABASI
SAYDULLAEV IBROHIMJON IKROMJON O'G'LI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MAVZU: NAMANGAN SHAHRI MAHALLARI TARIXI

Ilmiy rahbar:

t.f.n., dots: B. R. Isoqov

Taqrizchi:

t. f. n., dots. A. A. Isoqboev

Namangan – 2014

REJA:

KIRISH

I BOB. Namangan shahri mahallarining vujudga kelishi va ularning tarixiy rivojlanish bosqichlari

- 1.1. Namangan shahrining kelib chiqishi va rivojlanish jarayonlari
- 1.2. Namangan shahri mahallarining Qo‘qon xonligi va Sovet davridagi iqtisodiy va ijtimoiy ahvoli

II BOB. Mustaqillik yillarida Namangan shahri mahallarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotining o‘ziga xos yo‘nalishlari

- 2.1. Mustaqillik yillarida Namangan shahri mahallarining iqtisodiy va ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlar
- 2.2. Mustaqillik yillarida Namangan shahri mahallarida etnodemografik jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlari

XULOSA

Foydalanaligan adabiyotlar ro‘yxati

KIRISh

Mavzuning dolzarbliji. Mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixi har tomonlama xolis va ilmiy yoritila boshlandi. Ayniqsa, o'zbek davlatchiligi tarixi va uning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyoti jarayonlarida tutgan o'rnnini yoritishga katta e'tibor berilmoqda.

Ma'lumki, totalitar tuzum va kommunistik mafkura hukmronligi yillarida o'zbek xalqining ma'naviy merosi va qadriyatları, haqqoniy tarixini o'rganishga, o'zbek davlatchiligi taraqqiyotiga muhim hissa qo'shgan, milliy ozodlik uchun kurashgan tarixiy shaxslar faoliyatini yoritish va ommalashtirishga yo'l berilmagan edi. O'zbekiston o'z siyosiy mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng ushbu muhim mavzuni nafaqat bat afsil taddiq qilish, balki bu masalalarni mahalliy tarixchilar tomonidan bitilgan eng birlamchi manbalar asosida o'rganilishi uchun katta imkoniyatlar yuzaga keldi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo mintaqasidagi boshqa mustaqil davlatlar kabi polietnik, ya'ni ko'p elatlari davlat hisoblanadi. Hozirgi kunda uning hududida o'zbeklar bilan birga yuzdan ortiq millat va elat vakillari yashaydilar. Har bir millat o'zining tili, betakror madaniyati, urf-odat va an'analariga ega. O'zbekiston hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analarini hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi¹.

Millatlararo munosabatlardagi barqarorlik o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi. Oqilona tashkil etilgan milliy siyosat natijasida zamonaviy o'zbek jamiyatida ijtimoiy-siyosiy barqarorlik hukm surmoqda. Har qanday davlatni ichki va tashqi siyosatidagi barqarorlikni ta'minlash ko'p jihatdan milliy munosabatlar borasidagi siyosatni to'g'ri olib borilishiga bog'liq.

O'zbekistonning boyliklari ko'p, lekin bizning eng katta boyligimiz, eng yuksak qadriyatimiz, bu jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik, millatlararo do'stlik va hamjihatlikdir². Istiqlol tufayli ko'pmillatli yurtimiz tarixini xolisona o'rganish, respublikadagi turli xalqlarning etnik an'analarini va madaniyatini saqlab qolishga, rivojlantirishga, millatlararo munosabatlarni o'rganishga bo'lgan e'tibor

¹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003. – Б. 4.

² Каримов И. А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашамиз. 10-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б. 181.

kuchayib bormoqda. Darhaqiqat, I. A. Karimov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, har qanday sivilizatsiya ko‘pdan-ko‘p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining va samarali ta’sirining mahsulidir³. Demak, respublikaning asosiy tub joy aholisi hisoblangan o‘zbeklar bilan birga yashayotgan boshqa etnik guruhlarga xos bo‘lgan xususiyatlarni o‘rganish va rivojlantirish favqulodda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizning mustaqillik yillari nafaqat yurtimiz taraqqiyotida yangi davrni boshlab bergan, shu bilan birga xalqimizning o‘z o‘tmishini, o‘z madaniyati, o‘z tarixini bilish yillari sifatida qimmatlidir.

O‘zbekiston istiqlolga erishganidan so‘ng fuqarolarning, xususan yoshlarning o‘zi tug‘ilib voyaga yetgan yurti, shahri, ona Vatani tarixini atroflicha bilishga qiziqishi tobora ortib bormoqda. Bu tabiiy hol. Binobarin har qanday xalq, millat o‘zi bosib o‘tgan yo‘lning yutug‘u zafarlarini, yo‘qotishu qurbanlarini, quvonchu iztiroblarini xolis va haqqoniy tarzda bilsagina uning ongu shuurida tarixiy adolatga ishonch va insoniylik fazilatlari shakllanishi, ma’naviy olami kengayishi, bugungi kun qadri va ahamiyatini teran his qilishi mumkin. Aytish joizki, istiqlol yillarida Vatanimiz, uning barcha hududlari tarixini o‘rganish, ularni jamoatchilikka taqdim qilish borasida sa'y-harakatlar qilinmoqda, ko‘pgina shaharlarning yubileyлari o‘tkazilmoqda. Shu ma'noda Vatanimizning go‘zal go‘shalaridan biri Namangan shahri tarixini yaratish borasidagi sa'y-harakatlar O‘zbekistonimizning yaxlit to‘laqonli tarixini yaratishdagi amaliy qadamlardan biri deyish mumkin. Zero, Namangan deganda har bir kishi ko‘z o‘ngida avvalo ko‘chalar, gullarga burkangan yam-yashil ravon yo‘llarni, Tinchlik maydonidek betakror xiyobonu binolari zamonaviy arxitektura namunalarini o‘zida mujassamlashtirgan go‘zal maskan keladi.

Namanganning istiqlol yillarida yanada chiroy ochishida zamonaviy shaharsozlik talablari asosida bino va inshootlarning barpo etilishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Davlatimiz rahbari I. Karimov tashabbuslari asosida shahar markazida barpo etilgan Tinchlik maydoni fikrimiz dalilidir.

³ Каримов И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б. 91.

2004 yil 17 sentyabr kuni Xalq deputatlari Namangan viloyat Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida mamlakatimiz rahbari Namanganda shunday maydon tashkil qilish kerakki, u yoshlarning sevimli maskanlaridan biri bo‘lishi kerak, degan fikrni bildirgan edilar.

Keyingi yillarda tanib bo‘lmas darajada o‘zgarib, yangicha qiyofa kasb etib borayotgan Namanganning qoq markazida Prezidentimizning bevosita maslahatlari va yo‘l-yo‘riqlari asosida shunday maydon vujudga keldi va u bugungi kunda Namanganliklarning go‘zal va sevimli maskanlaridan biriga aylandi.

Shu ma'noda, davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda “Namanganning ko‘hna tarixi va madaniyati, go‘zal va haqiqatdan ham betakror tabiati, yer osti va yer usti boyliklari o‘z yo‘li bilan, lekin Namanganga barchaning e'tiborini tortib, o‘ziga maftun etadigan bebaholigi, avvalambor, shu yurtning obod qilib yashayotgan xalqi, uning yuksak ma'anviyati, shirinso‘zligi, o‘ziga xos xususiyat va fazilatlari”⁴, deyish mumkin.

Haqiqatdan ham, bu yurt o‘zining ko‘p yillik tarixi davomida ne-ne sinov va mashaqqatlarni ko‘rmadi. O‘ziga xos yuksalish va rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tmagan, lekin har qanday og‘ir davrlarda ham o‘zining kuch-qudrati va salohiyatiga ishongan Namangan xalqi tarixning barcha sinovlaridan mardona o‘tgan, ajdodlarimiz ruhiga sodiq qolib, o‘zligini yo‘qotmagan. Namanganni o‘ziga xos salohiyati, istiqlol yillarida yanada yorqin namoyon bo‘ladi. Buning boisi shundaki, avvalo istiqlol bergen imkoniyat va shaxsan Prezidentimiz Islom Karimovning Namangan viloyati, uning barcha shahar va tumanlari ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini rivojlantirishga doimiy e'tibor berib kelayotganliklari bo‘lsa, ikkinchidan, Namangan xalqiga xos azmu shijoat, yangilikka intilish, tadbirkorlik bilan ish yuritish kabi fazilatlar, o‘z yurtiga egalik, yon-atrofdagi, mamlakatimizdagi ijobiy o‘zgarishlar dahldorlik tuyg‘usidir.

Respublika tarixini ayrim hududlar, shaharlar, viloyatlar misolida o‘rganish, shubhasiz o‘tmishni yanada chuqur va mukammalroq tarzda yoritilishi uchun imkoniyat yaratadi. Shaharlar tarixini o‘rganish tadqiqotchilar diqqat markazida

⁴ Каримов И.А. Ўзбекистон Республикаси Президентлигига номзод Ислом Каримовнинг Наманган вилояти сайловчилари билан учрашувдаги нутқидан. “Наманган” нашриёти, 2007 йил 10 декабрь. 12- бет.

bo‘lib kelgan dolzarb mavzulardan biridir. Shaharlarning paydo bo‘lishi, ularning rivojlanishi borasida butun bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar tarixi gavdalanadi. Chunki, jamiyat tarixida shaharlar doimo muhim rol o‘ynab kelgan. Tarixiy taraqqiyot jarayonida shaharlarning qiyofalari doimo o‘zgarib borgan va shu bilan birga jamiyatda tutgan rollari ham oshib borgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov e’tirof etganidek: “Faqatgina mana shu Farg‘ona vodiysining o‘zida latif shahar deb nom olgan Qo‘qon, qadimiy Andijon, go‘zal Namangan, ko‘hna Axsikent kabi tariximizda iz qoldirgan shahar va qo‘rg‘onlarning nomlarini ulug‘lash va ularning ham qutlug‘ sanalarini keng miqyosida nishonlash-bularning barchasi bizning oldimizda turgan katta vazifadir”⁵.

Yuqoridagi inobatga olgan holda Namangan shahri mahallari tarixini o‘rganish, ularning toponimikasi, etnografiyasi va shahar aholisi mentalitetining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish hozirgi kundagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, hozirgi kunda shahardagi 82 ta mahalla o‘ziga xos tarixi ega va bu esa o‘z navbatida Farg‘ona vodiysining eng go‘zal shaharlaridan biri bo‘lgan Namanganning shonli o‘tmishini o‘rganishda muhim omil bo‘limb xizmat qilishi shubhasiz.

Mavzuning o‘rganilish darajasi. Shuni afsus va nadomat bilan qayd etish lozimki, Namangan shahri mahallari tarixi hozirgi qadar alohida tadqiqot ob'ekti sifatida o‘rganilmagan. Bunga quyidagi omillarni sabab qilib qayd etish mumkin:

1. Namangan shahrining vodiyning boshqa shaharlariga nisbatan kech paydo bo‘lganligi.
2. Qo‘qon xonligi hukmronligi davrida Namangan shahrining xonlik iqtisodiyotida va siyosiy hayotida o‘rnining kamligi.
3. Sovet davrida Namangan viloyatining ma’muriy tizmida tez-tez sodir bo‘lib turgan o‘zgarishlar.
4. Namangan shahri mahallari tarixiga oid manbalarning yetarli emasligi.

⁵ Ўзбекистон Республикаси Президенти И.Каримовнинг Марғилон шаҳрининг 2000 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқидан // Ишонч. 2007 йил 8 сентябрь.

Shuni qayd etish mumkinki, Namangan shahri mahallari tarixi maqola, tezis yoki risola ko‘rinishida sovet davri va mustaqillik yillarida masalaning u yoki bu jihatlariga e’tibor berilgan xolos.

XX asr 50-60-yillariga kelib, Farg‘ona vodiysi shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga bag‘ishlangan ommabop adabiyotlar nashr etila boshlandi. Ularda tabiiyki, kommunistik mafkura tazyiqi va ta’siri yaqqol ko‘zga tashlanadi. Sobiq sovet tuzumi davrida Farg‘ona vodiysi va uning xususiyatlarini tahlil etishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar orasida Z. Akramov, O. Ata-Mirzaev, I. Katanov, A. Kolbinsev, A. Ergashev, A. G‘ofurov va boshqalar tomonidan yaratilgan adabiyotlar⁶ hamda qisqacha ma'lumotnomalarni⁷ ham qayd etib o‘tish lozim. Ushbu ilmiy tadqiqotlar hududning mazkur davrdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar hamda demografik vaziyat haqida tasavvurga ega bo‘lish imkonini beradi. Jarayonlarni yoritish tajribasi, qiyosiy tahlillar asosida yaratilgan natija va xulosalar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, O. Ata-Mirzaev, I. Katanovlarning “Farg‘ona vodiysi sha-harlari (demografiya to‘g‘risida ba’zi fikrlar)” hamda O. Ata-Mirzaevning “K osobennosti razvitiya gorodskogo rasseleniya Ferganskoy doliny (prob-lemy narodonaseleniya)” monografiyalarida vodiylar shaharlardagi urbaniza-siya jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari o‘z ifodasini topgan.

Z. Akramovning risolasida Namangan viloyatining geografik tasnifi, xo‘jaligi, aholisi haqida ma'lumotlar berilgan⁸. Unda sanoat va qishloq xo‘jaligidagi axvol sovet tuzumi yutuqlarini ulug‘lashga qaratilgan bo‘lib, Namangan shahri mahallari haqidagi ma'lumotlar qayd etilmagan.

⁶ Ата-Мирзаев О., Катанов И. Фарғона водийси шаҳарлари (демография тўғрисида баъзи фикрлар). – Ташкент: 1972. – 32 б; Экономические проблемы повышения эффективности сельского про-изводства (на примере Ферганской долины). –Ташкент: Фан, 1979. – 123 с; Колбинцев А. Фарғона водийси бўйлаб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1979. – 101 б; Султонов Н. Фарғона иқтисодий райони саноатининг ривож-ланиши. – Тошкент: Ўзбекистон, 1985. – 24 б; Алиакберова Н. М., Гольдфарб Н., Эргашев А. Размещение на-селения Ферганской долины (демографический аспект). – Ташкент: Фан, 1990. – 49 с.

⁷ Фарғона водийси шаҳарлари: қисқача справочник. –Тошкент: Ўздавнашр, 1960. – 139 б; Фарғона водийси-даги шаҳарлар: қисқача справочник. –Тошкент: Ўздавнашр, 1963. – 57 б; Фарғона водийси шаҳарлари: қисқача маълумотнома. –Тошкент: Ўздавнашр, 1980. – 15 б; Акрамов З. Фарғона водийси. –Тошкент: Фан, 1957. – 87 б.

⁸ Акрамов З. М. Наманганская область (историко-географический очерк). –Ташкент: Из-во АН Уз ССР, 1955. – 176 с.

O. Abdullaevning “Farg‘ona vodiysi: Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jarayonlari” deb nomlangan risolasida sovet davri va mustaqillik yillarida Farg‘ona vodiysidagi, jumladan, Namangandagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar atroficha yoritib berilgan⁹.

E. Mirzalievning Farg‘ona vodiysidagi Namangan shahri tarixiga oid “Namangan shahar xalq maorifi tarixidan”, “Namangan madaniyati tarixidan lavhalar”, “Namangan shahri tarixidan lavhalar” kabi risolalari ham tadqiqot ob'ektini yoritishda muhim o‘rin egallaydi. Muallif o‘z asarlarida XX asr boshlarida Namangan shahridagi xalq ta’limi tizimidagi o‘zgarishlar hamda madaniy hayot haqida ayrim fikrlarini berib o‘tgan¹⁰.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi Namangan shahri mahallarining Sovet davri va mustaqillik yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarning har tomonlama o‘rganish, umumlashtirish va tahlil qilish hisoblanadi. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun tarixiy va mantiqiy izchillikda kompleks tarzda ilmiy tahlilni nazarda tutib, quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Namangan shahri mahallarining mamuriy-hududiy boshqaruvidagi o‘zgarishlarni o‘rganish va tahlil etish;
- Namangan shahri mahallarining tuzilishi va demografik holatidagi o‘zgarishlarni aniqlash;
- sovetlar davrida Namangan shahri mahallaridagi madaniy, tibbiy va maishiy xizmat ko‘rsatish muassasalarining ahvolini o‘rganish va tahlil qilish;
- Namangan shahri mahallaridagi iqtisodiy hayot hamda savdo-sotiq masalalarini o‘rganish va tahlil etish;
- Namangan shahri mahallaridagi zamonaviy etnodemografik va etnosotsial muammolarni o‘rganish.

⁹ Абдуллаев О. Фарғона водийси: ижтимоий-иктисодий ривожланиши жараёнлари. – Наманган, 2000. – 292 б.

¹⁰ Мирзалиев Э. Ю. Наманган шаҳар ҳалқ маорифи тарихидан. – Наманган. 1989. – 31 б; Ўша муаллиф. Наманган маданийти тарихидан лавҳалар. – Наманган, 1994. – 105; Мирзалиев Э.Ю., Бозорова М.Т. Наманганнинг XIX аср охири XX аср бошидаги социал-иктисодий ва маданий ривожланиши. – Наманган, 1998. – 168 б; Юсупов И., Мирзалиев Э. Наманган шаҳри тарихидан лавҳалар. – Наманган, 2010. – 112 б.

Tadqiqotning davriy chegarasi. Tadqiqot uchun davriy chegara qilib XVII asrdan hozirgi kungacha bo‘lgan yillar olindi. Chunki, iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar bo‘lgan davrlarda butun Farg‘ona vodiysida bo‘lgani kabi Namangan shahrida sodir bo‘lgan siyosiy o‘zgarishlar bu shaharda joylashgan mahallalarning siyosiy, ijtimoiy iqtisodiy ahvoliga jiddiy tasir o‘tkazib, ularning boshqaruv tizimini tubdan o‘zgartirib yuborgan.

Tadqiqotning ob'ekti va predmeti. Tadqiqotning ob'ekti sifatida hozirgi kunda Farg‘ona vodiysida aholi soni va hududi bo‘yicha eng yirik bo‘lgan Namangan shahri mahallari tarixini, uning predmetini esa shahar mahallaridagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar tashkil etadi.

Tadqiqotning manbaviy asoslari. Tadqiqot ishiga oid manbalarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

1. Namangan shahri mahallari tarixi aks etgan asarlar.
2. Davriy matbuot materiallari.
3. E’lon qilingan hujjatlar, rasmiy statistik ma'lumotlar.

Tadqiqotning nazariy-uslubiy asosi sifatida tarixiy va etnoijtimoiy jarayonlarni o‘rganishda qabul qilingan xolislik, tarixiy izchillik tamoyillari qiyosiy va majmuaviy tahlil, tarixiy-qiyosiylik hamda sosiologiyaning zamonaviy: kuzatish, shaxsiy intervyu, fotosuratlar kabi usullari qo‘llanildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning ma'-ruza va nutqlarida ilgari surilgan metodologik, ilmiy-nazariy, konseptual ko‘rsatmalari tadqiqot ishida nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qildi. Ayniqsa, I. A. Karimovning “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” (Toshkent, 1998), “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” (Toshkent, 2008) va boshqa asarlarida ilgari surilgan etnomilliy va diniy masalalarga doir fikr-mulohazalar tadqiqotning nazariy bazasida muhim o‘rin egalladi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati. Namangan shahri mahallari tarixini ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini ilmiy jihatdan o‘rganish Vatan tarixini yangi fakt va dalillar bilan yanada to‘ldiradi. Shuningdek, tadqiqot natijasida olingan xulosalardan O‘zbekiston tarixi bo‘yicha darsliklar, adabiyotlar,

qo‘llanmalar yozishda, oliy o‘quv yurtlari tarix fakultetlari bakalavrlari va magistrleri uchun maxsus kurslar tashkil etishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ilovadan tarzida Namangan shahri mahallari ro‘yxati berilgan. BMIning umumiy hajmi 68 betni tashkil etadi.

I BOB. Namangan shahri mahallarining vujudga kelishi va ularning tarixiy rivojlanish bosqichlari

1.1. Namangan shahrining kelib chiqishi va rivojlanish jarayonlari

Mamlakatimizning mustaqillik yillari nafaqat yurtimiz taraqqiyotida yangi davrni boshlab bergan, shu bilan birga xalqimizning o‘z o‘tmishini, o‘z madaniyati, o‘z tarixini bilish yillari sifatida qimmatlidir.

O‘zbekiston istiqlolga erishganidan so‘ng fuqarolarning, xususan yoshlarning o‘zi tug‘ilib voyaga yetgan yurti, shahri, ona Vatani tarixini atroficha bilishga qiziqishi tobora ortib bormoqda. Bu tabiiy hol. Binobarin har qanday xalq, millat o‘zi bosib o‘tgan yo‘lning yutug‘u zafarlarini, yo‘qotishu qurbanlarini, quvonchu iztiroblarini xolis va haqqoniy tarzda bilsagina uning ongu shuurida tarixiy adolatga ishonch va insoniylik fazilatlari shakllanishi, ma’naviy olami

kengayishi, bugungi kun qadri va ahamiyatini teran his qilishi mumkin. Aytish joizki, istiqlol yillarida Vatanimiz, uning barcha hududlari tarixini o‘rganish, ularni jamoatchilikka taqdim qilish borasida sa'y-harakatlar qilinmoqda, ko‘pgina shaharlarning yubileyлari o‘tkazilmoqda. Shu ma'noda Vatanimizning go‘zal go‘shalaridan biri Namangan shahri tarixini yaratish borasidagi sa'y-harakatlar O‘zbekistonimizning yaxlit to‘laqonli tarixini yaratishdagi amaliy qadamlardan biri deyish mumkin. Zero, Namangan deganda har bir kishi ko‘z o‘ngida avvalo ko‘chalar, gullarga burkangan yam-yashil ravon yo‘llarni, Tinchlik maydonidek betakror hiyobunu, binolari zamonaviy arxitektura namunalarini o‘zida mujassamlashtirgan go‘zal maskan keladi.

O‘zbekistonda shunday shaharlar, tumanlar, qishloqlar, tog‘lar, vodiylar, suv havzalari, qadimiy yashash makonlari, qa'lar, xarobalar va tepaliklarning nomlari uchraydiki, ularning o‘zaro bog‘liqligi, ma'no va mohiyati, berilishi sabablari, kelib chiqishi – etimologiyasi haqida ilmiy talqinlar va ayni paytda turli xil afsonarivoyatlar mavjud. Aholi istiqomat qiladigan joylarning nomlari fanda oykonimlar (yunoncha – oykos – uy, turar joy), suvliklar nomi gidronimlar (yunoncha – gidro – suv), yer yuzalarining nomi oronimlar (yunoncha – oros – tog‘), yer, dala nomlari agronimlar (yunoncha – agro – dala), yo‘l, so‘qmoqlar nomi dramonimlar (yunoncha – dromos – yo‘l) nomi bilan yuritiladi. Ayni paytda yurtimizdagи qadimgi shaharlar, xususan Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Qarshi, Toshkent, Marg‘ilon, Andijon, Qo‘qon, Urganch, Namangan kabi shaharlarning nomlari ham o‘z-o‘zidan, shunchaki qo‘yilgan emas. Boshqacharoq aytganda, tilda ma'nosiz, besabab nomlar bo‘lishi mumkin emas. Agar tariximizni sinchiklab o‘rganilsa, xalqimiz tomonidan u yoki bu joylarga nom berish ma'lum bir asossiz, sababsiz amalga oshirilmagan. Joylarga nom berishda xalqimizning ona-tabiatni sinchkovlik bilan kuzatish tajribasi, yer osti va usti boyliklariga bo‘lgan munosabat, kishilarning kundalik turmushi, xo‘jalik yuritishi, hunarmandchiligini hisobga olganligi ko‘zga tashlanadi.

Respublikamizdagи yirik shaharlardan biri bo‘lmish Namangan va uning etimologiyasi to‘g‘risida nima deyish mumkin? Afsuski shu paytga qadar tarixchi

va tilshunoslar o‘rtasida Namangan etimologiyasi to‘g‘risida aniq bir to‘xtamga kelinmaganligini ta‘kidlash joiz... Hamon ilmiy adabiyotlarda “Namangan” etimologiyasi umumiy ma'lumotlarga, turli talqinlarga ega hisoblanadi. Bu xususda H. Hasanov, Y. Qosimov, E. Mirzaliev, M. Bozorova va boshqalar o‘zlarigacha bo‘lgan turli talqinlarga to‘xtalib o‘tadilar¹¹. Xusan, shu paytga qadar Namangan nomi “**Namakkon**” ya’ni forscha **tuz koni** talqini bilan ko‘p tarqalgan. Ammo XX asr 70- yillarida Namanganda olib borilgan arxeologik qazishlar chog‘ida va mustaqillik yillaridagi shahar obodonchiligi bilan bog‘liq qazishmalarda hyech qanday tuz koni qoldiqlari yoki alomatlari topilmadi. Shulardan kelib chiqib Namanganni tuz koni deyish mumkinmikin?! Ammo bu degani tuz koni talqiniga oxirgi nuqta qo‘yildi degani ham emas... Chunki bu borada hali tarixiy tadqiqotlar olib borish davom etishi kerak va shundagina ma'lum bir xuloslarga kelish mumkin. Ayrim tarixchilar Namanganni etimologik jihatdan Novmakon, ya’ni “yangi joy” talqinida izohlaydilar. Shuningdek, Namanganga nisbatan aziz nomdor kishilar shahri degan talqin ham mavjud o‘z navbatida “Namang – marjon”, “Namangon – marjon koni” tariqasidagi izohlar ham bor. Yuqorida keltirilgan turli talqinlarga asoslangan Y. Qosimov “Namangan”ga nisbatan qora marvarid, marjon yoxud ko‘zmunchoq tayyorlovchilarga nisbatan aytilgan deyish bilan birga, yana ramziy jihatdan “qora ko‘zlilar yurti” degan ma'noda o‘z talqinini keltiradi¹². Yuqorida keltirilgan tarixiy talqinlar qanchalik “haqiqat”ga yaqin ekanligi shu kunga qadar o‘z ilmiy asosiga ega emas. Shuning uchun ham, hozirga qadar turli talqinlarga ega bo‘lib kelayotgan “Namangan” so‘zining etimologiyasi tarixi jumboqligicha qolmoqda...

U yoki bu shahar, xusan turar joy nomlarini aniqlash bo‘yicha bir to‘xtamga kelish ma'lum bir muammolar yechimini aniqlashni va ayni paytda katta bir mas'uliyatni talab qiladi. Bunda arxeologlar, tarixchi va geograflar, tilshunoslar tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning natijalari muhim ahamiyat kasb

¹¹ Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Т., 1965, Қосимов Й. Намангандан лавҳалар. – Т.: Фан, 1990; Мирзалиев Э, Бозорова М. Намангандан маданияти тарихидан лавҳалар. – Намангандан, 1994; Бозорова М. Намангандан шахри тарихига бир назар. – Намангандан, 1997; Бозорова М. Наманганинг XIX аср охири XX аср бошидаги социал-иктисодий ва маданий ривожланиши. – Намангандан, 1998.

¹² Қосимов Й. Намангандан лавҳалар. – Т.: Фан, 1990.

etadi. Masalan, tarixchi-arxeologlar u yoki bu turar joydagisi ishlab chiqarish turlari, hunarmandchilikka asoslangan holatda talqinni bersalar, tilshunoslar toponimlarni yuzaga kelishida qadimiy turkiy (o'zbek) tildan tashqari, qadimgi xorazmiy, eroniyligi, so'g'd tili, xitoy, yunon, mo'g'ul tillarining qaysi darajada ishtirok etganini hisobga olib va shundan keyingina o'z talqinlarini ilgari surishi kerak bo'ladi.

Albatta, har bir olim qo'l ostidagi manbalari, tarixiy tajribasidan kelib chiqib o'zining u yoki bu talqinini berishi mumkin. Ammo har qanday talqinlar ham ma'lum bir asoslarga tayansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuning uchun ham, Namangan etimologiyasi bilan bog'liq har xil talqinlarning hammasi turli qarashlar sifatida "yashashga" haqli... Bu borada bir to'xtamga kelishni VAQT ko'rsatadi. Buning uchun ushbu hududdagi arxeologik qazishmalar bilan bog'liq ishlar yana davom etishi kerak. Farg'ona vodiysidagi Andijon, Qo'qon, Marg'ilon shaharlari tarixiga mustaqillik yillardagi qiziqish qanchalik chuqurlashgan bo'lsa, Namangan tarixini o'rganish ham sust olib borilmasligi kerak. Ushbu ilmiy to'plam shunday harakatlarni debochasi desak yanglishmagan bo'lamiz.

Toponomlarda xalqlarning qadimiy davrlardan tortib shu kungacha bo'lgan kuzatishlari, tajribalari, ularning dunyoqarashi va turli e'tiqodlari o'z ifodasini topadi. E'tibor berib qaralsa, tilda ma'nosiz, besabab nom uchramaydi. O'z navbatida xalqimiz qadim-qadimdan boshlab joylarni nomlash bo'yicha boy tajriba orttirgan, biror joyni asossiz, besabab, shunchaki, u yoki bu tarzda atalmagan. Har bir atamaning tag zamirida ona tabiat, atrof-muhit haqidagi sinchkov kuzatishlar, u yoki bu hudud yer osti va usti boyliklari, kishilarning turmush tarzi, xo'jaligi, hunarmandchiligiga oid tushunchalar o'z aksini topadi.

1.2. Namangan shahri mahallarining Qo'qon xonligi va Sovet davridagi iqtisodiy va ijtimoiy ahvoli

Farg'ona viloyatini Abdullaxon II 1574 yilda bosib olgan va Buxoro xonligi tarkibiga kiritilgan. Buxoro islom dinining markazlaridan biri bo'lgan va Makka, Madina shaharlari qatorida XIII asrda Buxoroga ham "Sharif" degan unvon

berilgan va “Buxoroyi Sharif” deb atalgan. Buxoroda islom diniy tashkilotlari-masjid, madrasa, qorixona, mакtablar ko‘p bo‘lgan. Farg‘ona Buxoroga qo‘shilganidan keyin Buxoro xonlari bu yerlarda ham madrasa, qorixona va maktablarni ko‘paytirishga alohida e’tibor bergan. Buxoroning ta’sirida Farg‘ona shaharlarida, jumladan Namanganda ham, islomiy o‘quv yurtlarining soni ortib borgan. Namanganda Abdullaxon II (1557–1598 yy.) davrida yangi madrasa, qorixona va maktablар qurilgan. Is’hoqxon Ibratning «Farg‘ona tarixi» asarida yozilishicha, Namangan Abdullaxon II zamonida ancha obod bo‘lgan. Bu yerda u ko‘pgina sardoblar va gumbazli binolar qurdirgan. Ibrat «Farg‘ona tarixi» asarida «Buxoro xonlaridan Abdullaxon bu Farg‘ona taraflariga kelib, har yerga goh sardobalar kavlab, saqqoyi mu’miningga chohlarni tepasiga gumbazlar qilib, ko‘b xalqg‘a naqlik ishlarni qilgan xon ekan. Ul kishi bul Namanganni yeriga kelib, alholda sardoba degan madrasa bordur, bir chust va bir aminlik mahalladur, ul yerga tushub darhol sardoba kavlatib, necha kunlar turub»¹³ Namanganni obod qilgan deb hikoya qiladi.

Ibrat asaridan olingan parchadan ko‘rinib turibdiki, Abdullaxon Namanganga kelganda sardoba nomli madrasa bo‘lgan. Madrasa bo‘lgandan keyin shubhasiz maktablар ham bo‘lgan. Odatda yoshlar maktabni bitirib madrasaga o‘qishga kirgan. Lekin Namanganning u davrdagi maktablari haqida hozircha bizning qo‘limizda faktlar yo‘q. Shuning uchun aniq ma'lumotlar keltira olmaymiz. Lekin Namangan bilan chegaradosh Andijon viloyatining Baliqchi tumanidagi Gurovon qishlog‘ida XIX asrning oxirgi choragiga taalluqli arxiv hujjatlarida 1586 yilda bunyod etilgan maktab to‘g‘risida ma'lumot bor. Bu fakt shundan dalolat beradiki, XVI asrda Farg‘ona viloyatida, uning shahar va qishloqlarida eski maktablар bo‘lgan va masjidlar imomlari, so‘filari yoshlarni o‘qitib savodxon qilgan va ular madrasalarda o‘z o‘qishlarini davom ettirgan.

Shuni ham aytish kerakki, Namanganda Abdullaxon va keyingi xonlar davrida maktab, qorixona, madrasalar tashkil qilinib Namangan madaniyati rivojlangan shaharga aylangan. Bu yerda Ibratning «Farg‘ona tarixi» asarida

¹³ Абӯ Тоҳирхўжа. Самария. Наршахий. Бухоро тарихи. Баёний. Шажараи Хоразмшохий. Ибрат. Фарғона тарихи. – Т.: “Камалак”, 1991. – Б. 325.

yozilishicha Namangan aziz avliyolar va mashoyixlar, ya'ni o'qimishli, olim, ziyoli odamlar shahri bo'lgan.

Ibratning Namanganda Abdullaxon II zamonida madrasa bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotni haqiqiy ekanligini tasdiqllovchi XVI–XVIII asrlarga oid 13 ta maktab, 7 ta madrasa va 2 ta qorixona bo'lganligi haqida O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxividan yangi ma'lumotlar topdik. Bizga ma'lum tarixiy adabiyotlarda Namanganda bu davrda mакtab va madrasalar mavjudligi to'g'risida yozilmagan. Sovet davrida Ibratning «Tarixi Farg'она» asarining qo'lyozmasi nashr qilinmagan. Islom tarixiga oid arxiv hujjatlarini foydalanish va tarixiy asarlar yozish sovetlarni dinga qarshi siyosati tufayli man etilgan edi. Shu sababli sovet davrida Islom diniy tashkilotlari – madrasa va maktablar to'g'risidagi arxiv hujjatlaridan foydalanilmagan, ilmiy muomalaga kiritilmagan. Faqat mustaqillik tufayli tarixchilar qadimgi va o'rta asrlar tarixini xolisona yoritish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Sovet davrida chop etilgan "O'zbekiston sovet ensiklopediyasi" da va mustaqillik yillarida chop etilgan "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" da Namanganda 1892 yilda bunyod etilgan G'oyib Nazir madrasasi va 1912 yilda qurilgan Mulla Qirg'iz madrasasi to'g'risida ma'lumot bergen, xolos. Undan oldingi davrlarda mакtab, madrasalar bo'lganligi to'g'risida lom-mim deyilmagan. Demak mualliflarda Namangandagi o'rta asr davridagi mакtab va madrasalar to'g'risida ma'lumotlar bo'lmagan.

Yuqorida Namangandagi XVI–XVIII asrlarga oid mакtab, qorixona va madrasalar to'g'risidagi ma'lumotlar biz yaqinda O'zR MDA ning Farg'она viloyati boshqarmasi arxiv fondidan topgan "Namangan uezdi bo'yicha o'quv yurtlari to'g'risidagi 1887 va 1888 yillarga tegishli xabarnoma" nomli hujjatdan olingan. Bu xujjat Namangan uezdi boshlig'i polkovnik Arvanitakining 1889 yil boshlarida Farg'она viloyati boshqarmasiga yuborilgan xabarnomaning tasdiqlangan nusxasi. Hujjatning asl nusxasi Turkiston o'lkasi o'quv yurtlari boshqarmasiga yuborilgan. Arxivda Namangan uezdi o'quv yurtlarining 1882, 1884, 1885 va 1886 yillarga tegishli xabarnomalari ham saqlangan. Bu hujjatlar jadval shaklida tayyorlangan bo'lib, ularda mакtab, madrasalarni nomi, tashkil

qilingan yili, o‘qituvchi va o‘quvchilar soni, har bir o‘quv yurtiga sarflangan mablag‘, o‘quv yurtining manzili: shahar, qishloq, volost nomlari ko‘rsatilgan. 1882 yil bo‘yicha berilgan xabarnomada 17 madrasa va 62 ta maktab bo‘yicha ma'lumot berilgan. 1887 va 1888 yillar bo‘yicha xabarnomada 42 ta madrasa va 296 ta maktab haqida ma'lumot bergen. Madrasa va maktablar sonidagi farqning sababi, bizning fikrimizcha, 1882 yilda ular to‘la ro‘yxatga olinmagan, 1887 va 1888 yillarda to‘la ro‘yxatga olingan bo‘lishi kerak. Chunki qisqa vaqt ichida, 5-6 yilda 25 ta madrasa va 134 ta yangi maktab bunyod etilishi mumkin emas. Bu fikrni 1887 va 1888 yillarda maktablar sonida o‘zgarish bo‘lmaganligi ham tasdiqlaydi. Bu ikkita xabarnomalarning asosiy farqi birinchisida o‘quv yurtlarining tashkil bo‘lgan yili ko‘rsatilmagan, natijada bu hujjatni qimmatini pastlatgan. Oxirgi xabarnomada madrasa, qorixona va maktablarning bunyod etilgan vaqtini ko‘rsatilgan. Bu hujjatdan qaysi maktab, madrasa va qorixona qaysi asrda vujudga kelganini aniqlash imkoniyati bor. Shuning uchun tadqiqotimizga asosiy manba sifatida “Namangan uezdi bo‘yicha o‘quv yurtlari to‘g‘risidagi 1887 va 1888 yillarga tegishli xabarnoma” ni tanlab oldik. Bu hujjat tarix fani uchun juda noyob va qimmatli ma'lumotlarni, ya'nii Namangan bekligidagi XVI–XVIII asrlarga oid maktab, qorixona va madrasalar haqidagi ma'lumotlar to‘g‘risida xabar beradi. Jadvalda berilgan raqamlar, ma'lumotlar asl nusxa bilan bir xil ekanligi tasdiqlangan. Namangan uezdi boshlig‘ining kotibi hujjatni “Asliga to‘g‘ri” deb imzo chekan, ish yurituvchi esa matnni asliga solishtirib chiqqanligini ko‘rsatib “Solishtirdim” deb imzo chekan. Ushbu hujjatning bu tarkibiy qismlari uni ishonchli manba ekanligidan dalolat beradi. Hujjat rus tilida, qo‘lda yozilgan va 15 varaqdan iborat. Unda hujjat tuzilgan 1889 yilda Namangan uezdida mavjud bo‘lgan 42 ta madrasa, 40 ta qorixona va 296 ta maktablarni ro‘yxati berilgan.

Bu hujjatni paydo bo‘lishi haqida ikki og‘iz so‘z aytishga to‘g‘ri keladi. Chor hukumati Turkiston ruhoniylaridan, musulmon diniy tashkilotlari xodimlaridan ancha cho‘chigan. Chunki Turkiston bosib olingan dastlabki yillarda ruhoniylar, madrasalarning mudarrislari va talabalari ruslarga qarshi qo‘zg‘olonlar tashkil qilgan. Shundan tegishli xulosa chiqarib, chor hukumati ko‘rsatmasi bilan

Turkiston general gubernatori K. P. Kaufman 1880 yilda viloyat harbiy gubernatorlariga har yili Turkiston o'lkasi o'quv yurtlari boshqarmasiga musulmon o'quv yurtlari haqida ma'lumot berib turishi talab etilgan. Shu ko'rsatmaga binoan Farg'ona viloyati harbiy gubernatori begona (rus bo'limgan) xalqlar o'quv yurtlari to'g'risida ma'lumot berib turgan. Biroq 1887 va 1888 yillarda shunday ma'lumot boshqarmaga yuborilmagan. Shu sababli 1889 yil 7- fevralda Turkiston o'lkasi o'quv yurtlari boshqarmasi Farg'ona viloyati harbiy gubernatoriga xat yozib, 1887 va 1888 yillarga o'quv yurtlari haqida ma'lumot yuborishni talab qilgan¹⁴. Shundan kelib chiqib Farg'ona viloyati harbiy gubernatori Namangan uezdi boshlig'iga xat yozib, bu ma'lumotlarni boshqarmaga va nusxasini menga jo'natishingizni so'rayman degan mazmunda xat yozgan. Shu xatga javoban yuqorida tilga olingan xabarnomani tasdiqlangan nusxasi Skobelevga, harbiy gubernatorga 1889 yil boshida yuborilgan.

Qo'qon xonligi davrida xonlik qo'shinini harbiy qurollar bilan ta'minlashda Namangan shahri mahallarida tayyorlangan qurollar o'zining sifati bilan mashhur bo'lган. Namangan hunarmandlari orasida qurol-aslaha va jang kiyim-kechaklari ishlab chiqaradigan ustalar va kosiblar katta obro' va hurmatga ega edilar. Mahalliy ustalar tomonidan ikki turdag'i qilich tayyorlangan bo'lib, ularning birinchisi egik oysimon ko'rinishda, ikkinchisi to'g'ri shaklga ega edi. Oysimon ko'rinishdagi qilich xonlik qo'shinida keng tarqalgan bo'lib, bu turdag'i qilichlar yengil va o'tkir bo'lib, zarba berishda anqlik bilan harakat qilish imkoniyatini berar edi. U aynan shu sifatlari bilan yevropa qilichlaridan ustun turar edi¹⁵. Qilichlarning dastasi hayvon shohi, fil suyagi va daraxtlardan tayyorlangan. Qilich qinlari odatda yog'ochdan tayyorlanib uch qismiga metall qoplangan. Qilichlar sifati uning tayyorlanish muddatiga bog'liq bo'lган. Sifatli qilichlar 15 kunda tayyorlangan bo'lsa, sifat ko'rsatkichi u qadar yuqori bo'limgan qilichlar 3–5 kunda tayyor bo'lган¹⁶. Qo'l jangida foydalilaniladigan qilich, xanjar, nayza kabi qurollar doimo bir xil miqdorda ishlab chiqilmagan. Harbiy harakatlar vaqtida

¹⁴ ЎзР МДА, 19- фонд, 1- рўйхат, 12554- иш, 1- варак.

¹⁵ Парамонов И. О туземном оружии в Туркестанском крае // Туркестанский сборник. Т. 57. С. 216.

¹⁶ Ўша асар. С. 217.

bunday qurollarni tayyorlash miqdori bir necha marotaba oshgan. Bunday qurollarga bo‘lgan talab, ularning mavjud miqdoriga nisbatan yuqori bo‘lgan. Bu o‘rinda shuni alohida qayd etish kerakki, XVIII asr oxiri – XIX asr boshlariga kelib, Qo‘qon qo‘s Shinida O‘rta Osiyoning boshqa xonliklarida kuzatilgani kabi, o‘q otar qurollarning keng tarqalishi bilan, sovuq qurollar – xanjar, qilich, nayza hamda askarlarning himoya vositasi bo‘lgansovut, dubulg‘a, qalqon kabilarning ahamiyati pasaya boshladi.

Miltiq tayyorlovchi ustaxonalar xonlikning turli shahar va viloyatlarida joylashgan bo‘lib, ular yuqorida qayd etilganidek xon xazinasi tomonidan ta‘min etilgan¹⁷. Qurol, ya’ni, miltiq ishlab chiqarish bo‘yicha Namangan shahri alohida ajralib turgan. Miltiqlar uchun stvollar asosan Rossiyadan keltirilar edi¹⁸. Andijonda esa yevropa uslubiga mos miltiqlar ustaxonasi qurilgan bo‘lib, unda miltiq va boshqa qurollar ta‘mirlanardi¹⁹. V. V. Velyaminov-Zernov xonlik ustalari tomonidan tayyorlangan miltiqlar talab darajasiga javob bermaydi, deb hisoblagan²⁰. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar tahlili Qo‘qon xonligida miltiq ishlab chiqarishga ihtisoslashgan yirik korxonalar bo‘limganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga yevropada tayyorlangan miltiqlarga o‘xhash miltiqlarni tayyorlash uchun ehtiyyot qismlari Rossiyadan hamda, Hindiston, Afg‘oniston orqali boshqa yerlardan keltirilganligi, xonlikdagi ustaxonalar yig‘uv sexlari vazifasini bajarganligidan dalolat beradi.

Namangan uezdi 1918 yilda Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi Farg‘ona oblasti tarkibidagi uezd sifatida tashkil etilgan va u bu ma’muriy birlik tarkibida 1925 yilgacha faoliyat olib borgan. 1925 yilda Namangan uezdi quyidagi volost (bo‘lis)lardan iborat bo‘lgan: Olmos, Asht, Aksi-Shahand, Bobodarxon, Varzik, Kapa, Koson, Qirg‘izqo‘rg‘on, Nanay, Pop, Peshqaron, Chodak, Tergachi, To‘raqo‘rg‘on, Chortoq, Chust, Xonobod, Yangiqo‘rg‘on²¹.

17 Троицкая А.Л. Каталог архива Кокандских ханов. – С. 312-313.

18 Кокандское ханство (по новейшим известиям) // Туркестанский сборник. Т.23. Спб. 1980. – С. 66–67.

19 Набиев Р. Н. Из истории Кокандского ханства. – С. 207.

20 Вельяминов-Зернов В.В. Сведения о Кокандском ханстве. – С. 207

21 Список населенных мест Узбекской ССР и Таджикской ССР. – Вып 3. – Ферганская область. – Самарканд: Издательство ЦСУ УзССР, 1925. – С. 1–4.

1925 yilda Namangan uezdida 273 ta aholi punkt (qishloqlari bo‘lib, undagi xo‘jaliklar soni 43934 tani tashkil etib, jami 184972 ta aholi istiqomat qilgan. 1926 yilda o‘tkazilgan O‘zSSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining 5-sessiyasida bo‘lib o‘tgan rayonlashtirish siyosati natijasida barcha uezdlar singari Namangan uezdida ham 6 ta tumanga tashkil etilgan. Namangan uezdi 1926–1938 yillarda Farg‘ona okrugi tarkibida, 1938 yildan 1941 yilgacha Farg‘ona oblasti tarkibida bo‘lgan²². 1941 yil 6 martda O‘zSSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining qaroriga ko‘ra, Namangan viloyati tashkil etilgan.

XIX asrda ham mahalla ijtimoiy tuzilish va boshqaruvning tarixiy tarkib topgan tizimi hududiy jamoa hayot faoliyatining o‘zagi bo‘lib hizmat qildi, shahar jamoasining asosiy vazifasi esa faqat birgalikda faoliyat olib borishgina bo‘lmay, balki o‘zbeklar ijtimoiy hayotini tashkil etish, oila va turmush an'analarini, rasm-rusumlarni, xalqimiz turmush tarzining barcha tizimini saqlash va boyitishdan ham iborat bo‘lgan. O‘tgan barcha asrlar mobaynida birgalikdagi jamoa hayotining o‘zaro manfaatdorlik, kattalarga hurmat, bir-biriga yordam, mehmondo‘slik va ko‘plab boshqa jihatlarni o‘z ichiga olgan ahloq-odob me'yorlaridan iborat an'analarini mustahkam bo‘lgan. Garchi, ijtimoiy tafovutlar mavjud bo‘lsada, jamoa negizlari demokratik asoslarga tayanar edi.

Turkiston Rossiya imperiyasining mustamlakasiga aylantirilgan davrda o‘lka boshqaruvi zo‘ravonlikka asoslanganligini va u doimiy usul sifatida saqlanib kelganligini ko‘ramiz. Rossiya hukumati Turkiston xalqlarining «xohish-irodasi va roziligidagi qarab qolmasligi»ni hamda «bu o‘lkada to‘la erkin bo‘lishi zarurligi»ni hamisha alohida uqtirib kelgan. Shu asosda Turkiston general-gubernatorlik boshqaruv tizimi tuzilgan. Shahar, qishloq boshqaruvi tizimida tuman boshlig‘i tasarrufida uchastka (bo‘lim) pristavi bo‘lib, unga mahalla oqsoqollari ellikboshi, o‘nboshilar bo‘ysundirilgan. Shunday qilib, Turkiston general-gubernatori o‘z qo‘lida harbiy va fuqaro hokimiyatini birlashtirib, jilovini mahkam ushlab turgan. Mahalliy boshqaruv tizimi rus ma‘muriyati qo‘lida bo‘lgan. «Rus ma‘muriyatining

²² Бу ҳақда қаранг: Наманган тарихидан лавҳалар. 1-китоб. – Наманган, 2010. – Б. 60–63.

aholiga «o‘zini o‘zi boshqarish» va «saylov huquqini berishi» g‘irt lo‘ttibozlikdan iborat bo‘lib, aslida ishning tizgini uning qo‘lida qolgan»²³.

Mustamlakachilar mahalliy boshqaruv idoralariga mas’ul shaxslar tanlanishida nihoyat hushyor ish tutib, basharti ilg‘or, taraqqiyatparvar va millatparvar kishilar volost, hatto mahalla boshqaruvchisi, oqsoqol, yuzboshi, ellikboshi yoki qozi sifatida saylanib qolsa, ularni lavozimga tasdiqlamaslik uchun turli hiylanayranglar ishlatganlar. «Turkiston o‘lkasini boshqarish haqidagi nizom» deb atalgan hujjat esa ularga bu borada keng faoliyat maydonini yaratib bergan. Chorizmning ushbu ma’muriy siyosatdan ko‘zlangan asosiy maqsadi o‘lkaning iqtisodiy jihatdan qonini so‘rish, ma’naviy-ruhiy maqsadi esa, pirovard natijada, O‘rta Osiyo xalqlarini ruslashtirishdan iborat bo‘lgan.

Samarqand, Toshkent, Andijon, Qo‘qon va boshqa yirik shaharlar dahalarga, ular esa, o‘z navbatida mahallalarga bo‘linib, mahallalarga oqsoqollar boshchilik qilgan. Har bir mahallada masjid bo‘lib, odamlar hayotidagi barcha muhim voqyealar shu yerda hal qilingan. Dafn marosimini masjid imomi bilan so‘fi tashkil etgan. Farzand tug‘ilganda, nikoh to‘ylarida oilaning moddiy ahvoliga qarab, dasturxon qanday bo‘lishi, qancha odam chaqirilishi belgilangan.

Bir necha xonadonli kichik mahallalar qo‘rg‘oncha deb atalar, ularda odatda endigina o‘troq hayotga o‘tgan oilalar joylashgan bo‘lardi. Mahallalarning qadimiy mahalliy boshqaruv tizimi ekanligini Toshkent shahri misolida ham yaqqol ko‘rish mumkin.

Ma’muriy jihatdan Toshkent qadimdan mavjud bo‘lib kelayotgan to‘rt daha – Shayxontohur, Sebzor, Ko‘kcha va Beshyog‘ochga bo‘lingan edi. Har bir daha bevosita shahar hokimi – bekka bo‘ysunuvchi oqsoqol(mingboshi)ga ega edi. Daha yuzboshilar tomonidan boshqariladigan ko‘plab mahallalardan tashkil topgan. N. A. Maevning ma'lumotlariga ko‘ra, XIX asr oxirida Toshkentdagi mahallalar soni 149 ta bo‘lib, ularning 48 tasi – Shayxontohur, 38 tasi – Sebzor, 31 tasi – Ko‘kcha va 32 tasi – Beshyog‘ochda joylashgan²⁴.

²³ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1- китоб. – Т.: Шарқ, – Б. 204.

²⁴ Тошкент маҳаллалари: Анъаналар ва замонавийлик. – Тошкент, 2002. – Б. 11.

Alovida shahar, qishloq yoki daha ijtimoiy hayotini tashkil etish shakli bo‘lgan qo‘snnichilik jamoasi (mahalla) qadimdan mavjud bo‘lib kelgan. U mahalla, (mahallat, yer, daha, jamoa, guzar, el, yurt kabi) bir qancha nomlar bilan yuritilgan hamda shahar jamiyatining nafaqat hududiy, shu bilan birga, eng quyi ma’muriy birligi hisoblangan.

Jamoaning ichki tuzilishi odamlarning avloddan-avlodga o‘tib kelgan qon-qarindoshlik va ruhiy yaqinlik haqidagi tasavvurlariga tayangan.

XX asrning boshidayoq mahallalar daha boshliqlari bo‘lgan mingboshilar tomonidan belgilanadigan yuzboshi (oqsoqol)lar tomonidan boshqarilgan. Yuzboshilar mingboshilarga bo‘ysungan, ularning ko‘rsatmalarini bajargan. O‘tmishda yuzboshi va uning yordamchilari mahalla boshqaruvini tashkil etishgan, boshqaruvchi vakillar umumiy yig‘inlarda saylangan. Lekin shahar ma’muriyatları, imomlar, dahaning boy-badavlat qatlamlari bu saylovlargaga katta ta’sir ko‘rsatganlar, ko‘pincha uning yo‘nalishini belgilab bergenlar.

Jamoa boshlig‘i qilib ko‘pincha boy bo‘lmagan, o‘rtahol, katta hayotiy tajribaga ega bo‘lgan hurmatli kishini saylaganlar. U fuqarolar o‘rtasida hurmat-e‘tiborga ega bo‘lishi va shahar yig‘inida, daha sudida mahalla manfaatlarini munosib ravishda himoya qila olishi lozim edi²⁵.

Yuzboshi mahalla fuqarolari o‘rtasidagi janjalli masalalarni hal etgan, janjallahayotgan tomonlarni o‘zaro murosaga keltirgan, qozilar sudida o‘z mahalladoshlarining manfaatini himoya qilgan, mayda-chuyda ayblar uchun jazo belgilagan.

Mahalla a’zolari o‘zлari yashayotgan daha hududini, shuningdek, shahardan tashqaridagi mauzalarni²⁶ birgalikda tasarruf etganlar. Toshkentdagi shahar hayotining o‘ziga xosligi shunda ediki, XIX asrda va XX asrning boshlarida aholi turli mashg‘ulotlar (hunarmandchilik, savdo, turli xizmatlar) bilan bir qatorda, yoz oylarida shahardan tashqaridagi bog‘lariga chiqib dehqonchilik bilan shug‘ullangan.

²⁵ Тошкент маҳаллалари: анъаналар ва замонавийлик. – Тошкент, 2002. – Б. 12.

²⁶ Мауза – аҳоли деҳқончилик билан шуғулланадиган шаҳардан ташқаридаги ер майдонлари. Бу ерлар дастлаб жамоа мулки хисобланган.

Mahallaning umumiylar bo‘lgan, u turli marosimlarni o‘tkazish uchun zarur turli anjomlardan iborat edi. Har bir mahallada bitta katta yoki bir necha kichik qozon. samovar, yetarli miqdorda kosa, piyola, dasturxon, qoshiq, xontaxta, kursi, ko‘rpacha, gilam va boshqa buyumlar mavjud edi. Mahallada dafn marosimida ishlatiladigan tobut va boshqa maxsus jihozlar ham bo‘lgan.

Har bir mahalla biron-bir o‘ziga xos xususiyati bilan ajralib turgan: biri pichoq, gazlama, quroq, egar, jabduq, beshik, sandiq va boshqa narsalar yasaydigan qo‘li gul ustalari bilan mashhur bo‘lsa, boshqasi yuksak ma’naviy negizlari, o‘qimishli kishilarning ko‘pligi, noz-ne’matga boy bog‘lari bilan shuhrat qozongan va hakazo.

Toshkent mahallalari ishlab chiqarish prinsipiqa qarab nomlangan. Bu yerda Temirchi, Misgarlik, Qoshiqchilik, Taqachi, Egarchi, Parchabof, Zargarlik, O‘qchi, Chaqichmon, Degrez va boshqa mahallalar mavjud bo‘lgan. Bu mahallalarning nomidan Toshkentdagi hunarmandchilik ishlab chiqarishining geografiyasini aniqlash mumkin. Shaharning katta bozori va uning atrofida joylashgan mahallalar nima bilan savdo qilishiga qarab nomlangan: To‘nbozor, Egarbozor, Tuzbozor, Ipakbozor, Sandiqbozor va hokazo.

Mahallalarning nomlanishida shahar aholisining uzoq yillar mobaynida shakllangan etnik tarkibi ham o‘z aksini topgan. Bu nomlarni tahlil qilish aholining turkiy-forsiy kelib chiqishi va turkiy aholi nisbatining yaqqol ustunligidan guvohlik beradi: 105 ta mahallaning nomi turkiy, 44 tasi forsiy, 35 tasi esa har ikkala tilda bab-baravar qo‘llanadigan so‘zlardan kelib chiqqan²⁷.

XIX asrda Tojik, Qashqar, Mo‘g‘ulko‘cha, Qang‘li, Turk, Kaltatoy, Chig‘atoy singari mahallalar bor edi. Hoji, Ulamo kabi mahalla nomlari jamiyatning tabaqaviy xususiyatini o‘zida aks ettirgan. Toshkentda asosan badavlat kishilar istiqomat qilgan bir necha mahallalar bo‘lgan: Boyko‘cha, Qoziko‘cha, Hojiko‘cha, Eshonguzar va boshqalar. Shu o‘rinda kasbiy, ijtimoiy va tabaqaviy mansubligiga ko‘ra birlashgan kishilar bilan bir qatorda, har bir mahallada boshqa

²⁷ Қаранг: Маллицкий Н.Г. Тошкент маҳалла ва мавзелари. – Тошкент, 1996. – Б. 7.

tabaqa, ijtimoiy guruh va kasb-hunardagi aholi ham istiqomat qilganligini qayd etib o'tish lozim.

Bir qator mahallalar mashhur kishilar, avliyolar yoki machitlar nomi bilan atalgan: Xastimom (Hazrati Imom), Tillashayx, Yunusxon, Shayx Zayniddin buva, Oqmachit, Salimmachit. Sag'bon ko'chasida joylashgan mahallalardan biri mashhur olim va hofiz Ko'hakiy nomi bilan atalgan.²⁸

Toshkentda mahallalar aynan qaysi davrdan boshlab paydo bo'lganini aniq-lash qiyin, lekin o'rganilgan barcha mahallalar (shahar devori doirasida) tarixi bir necha yuz yilliklarga borib taqaladi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, Obinazir mahallasi 600 yildan buyon mavjud. Chig'atoy mahallasining paydo bo'lishi va nomlanishi bu yerda yashagan o'zbek urug'laridan biri – chig'atoy atamasidan (XIII asr) kelib chiqqanligi haqida farazlar mavjud.

1917 yilgi Oktyabr to'ntarishi natijasida hokimiyatni qo'lga olgan bolsheviklar, eski davlat mashinasini birinchi galda sindirish to'g'risidagi markscha-leninchcha tezisga suyangan holda o'z davlatlarini tiklay boshlaydilar. Garchi birdaniga bo'lmasa-da, burjua davlatchiligi ta'limoti sifatida mahalliy o'zini o'zi boshqarish idoralarini ham sindirish lozim edi.

Ichki ishlar xalq komissarligining birinchi hujjati – 1917 yil 24 dekabrdagi chop etilgan yo'riqnomasida aytishicha, joylardagi hokimiyatni tashkil etishga butunlay «yangicha» yondashish zarur edi. Ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetlari mahalliy ahamiyatga molik masalalarda mutlaqo mustaqil deb e'lon qilingan bo'lsa ham, biroq markaziy Sovet hokimiyatining dekret va qarorlariga muvofiq ish tutishlari lozim edi.

Hokimiyat idorasi sifatida Sovetlarga mahalliy ahamiyatga molik ma'muriy, xo'jalik, moliyaviy va madaniy-ma'rifiy ishlarni boshqarish vazifalari yuklatilgandi. Boshqaruv tartibida Sovetlar hokimiyatning barcha dekret va qarorlarini hayotga tatbiq etishlari, bu qarorlar haqida aholini keng xabardor etish choralarini ko'rishlari, aksi inqilobiy idoralarni yopib qo'yishlari, rekvizitsiyalar va musodalarlarni amalga oshirishlari, jarimalar solishlari, xibsga olishlari, Sovet

²⁸ Тошкент маҳаллалари: анъаналар ва замонавийлик. – Тошкент, 2002. – Б. 16.

hokimiyatini ag‘darib tashlashga yoki unga qarshi faol harakat qilishga chaqiruvchi jamoat tashkilotlarini tarqatib yuborishlari kerak edi.

Shunday qilib, mahalliy Sovetlar oshkora ravishda davlat hokimiyati idoralari bo‘lib qoldi. Bu mahalliy xarakterda bo‘lsa ham, ammo markaziy idoralar doirasida mustaqil ish olib boradigan, sinfiy kurashda oshkora ishtirok etuvchi hokimiyat edi. Mohiyatan bu davlat hokimiyatini «demokratik sentralizm» tamoyili asosida tashkil etishga birinchi yondashuv edi.

Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishni ko‘zda tutmagan, ammo davlat apparatini yaratishda xiyla mohirona foydalanilgan mafkuraning da‘vo qilishicha, go‘yo «butun davlat hokimiyati o‘zini o‘zi boshqarish asosida tashkil etildi, o‘zini o‘zi boshqarish esa davlat hokimiyatiga aylandi». Darhaqiqat, tashqaridan qaraganda manzara g‘oyat zo‘r edi – butun mamlakat hatto eng kichik hududiy birliklar: qishloqlar, ovullar, o‘rtacha shaharlarda tuziladigan turli-tuman Sovetlar bilan qoplangan edi.

Biroq sovet hukumati Sovetlar va mahallalarning vazifalarini cheklash, o‘ziga bo‘ysundirishga intildiki, bu hol mahalla faoliyatiga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Ammo mahalla o‘zining yashovchanligini namoyon etib, an'anaviy hayot va aloqa tarziga qarshi har qanday hujumlarga va ularni yo‘qotish yo‘lidagi urinishlarga dosh berdi. U ilgarigi hayot tarzi, urf-odat va rasm-rusumlarni pinhona saqlab qola oldi. Kommunistik tizim mahallani o‘z nazoratidan chiqarib yubormaslikka intilib, tarkib topgan jamoat tuzumidan o‘z maqsadlarida foydalanishga intildi va shuning uchun bunday holat bilan hisoblashishga majbur bo‘ldi. Rasmiy doiralar mahalla komitetlariga aholini hisobga olish va ma'lumotnomalar berish hamda yuqori tashkilotlarga hisobot taqdim etish vazifalarini yukladi. Hokimiyat ana shunday mayda-chuyda vazifalar hisobiga mahallalarning vazifalari doirasini kengaytirish bilan eski urf-odatlarni siqib chiqarib, ularni yangilari bilan almashtirish payida bo‘ldi. Masalan, eski an'anaviy nikoh to‘yi yangi-qizil to‘y bilan almashtirildi. «xalqning azaliy udumlari «feodalizm sarqitlari»deb baholanib, ularga qarshi hujum boshlandi. Kishilarning axloq me'yorlari va qadriyatlarini o‘zgartirishga harakat qilindi. Sovet hukumati qatag‘on yillarida mahallada yashab kelayotgan

ilgarigi badavlat kishilar haqida ma'lumot to'plashga harakat qildi. Ularning ko'pchiligi hibsga olinib, surgun qilindi.

1932 yil 17 aprelda O'zbekistonda birinchi marta shaharlardagi mahalla qo'mitalari to'g'risida Nizom chiqdi²⁹. 1935–1936 yillarda mahalla qo'mitalari tashkil etilib, aholi o'rtasida olib boriladigan barcha ishlarni qo'mita raisi boshqaradigan bo'ldi.

Oradan 30 yil o'tgach, 1961 yil 30 avgustida O'zbekiston Oliy Kengashi respublika shahar, qishloq, posyolka va ovullardagi mahalla qo'mitalari to'g'risidagi Nizomni qabul qildi. Ammo unda mahallaga yuridik shaxs maqomi berilmagan edi. «Mahalla qo'mitalari biron-bir moliyaviy xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin emas, ular oldi-sotdi, ijaraga berish ishlarini bajarishda qatnashishlari mumkin emas» edi. Bundan ko'rinish turibdiki mahallalarning huquq va vakolatlari cheklangan edi³⁰.

Ikkinci jahon urushi mahallaning baynalminalchilik tabiatini namoyon etdi. Urush davrida mahalla qo'mitalari armiyaga chaqiruvni tashkil etish, mehnat frontiga aholini safarbar qilish, ko'chirib keltirilgan aholini turar-joy bilan ta'minlashda faol ishtirok etdilar³¹.

Urushdan keyingi yillarda O'zbekistonga o'z yurtidan badarg'a qilingan qrim tatarlar ko'chib kelishdi. Mahalliy aholi ularning og'ir qismatiga hamdard bo'lib, ularga bospana va non-tuz berdi³².

«O'tmish sarqlitlari»ga hamda musulmon aholining an'anaviy turmush tarziga qarshi kurash, ularni kommunistik yoki yevropa andozalari bilan almashtirishga urinishlar mahalliy aholining hayot tarzini tashqi jihatdangina o'zgartirdi, xolos. Xalqimizning qoniga singib ketgan oila va mahalla an'analari esa bekamu ko'st saqlab kelindi va yoshtar ongiga singdirildi. Shuning uchun 80-yillarning ikkinchi yarmidayoq jamiyatda oz bo'lsa-da, demokratiya kurtaklari paydo bo'la boshlashi bilanoq barcha an'anaviy tartibotlarni ildam qayta tiklash imkoniyati tug'ildi.

²⁹ Тошкент оқшоми, 2001. 19 июнь.

³⁰ Тошкент оқшоми, 2001. 18 июнь.

³¹ Тошкент маҳаллалари: анъаналар ва замонавийлик. – Тошкент, 2002. – Б. 32.

³² Тошкент маҳаллалари: анъаналар ва замонавийлик. – Тошкент, 2002. – Б. 30.

Mahalla – inson aql-zakovatining mahsuli bo‘lib, tabiat va jamiyatdagi hodisalarni kuzatish asosida odamlarning bir-biriga bo‘lgan ishonchi hamda munosabatlari madaniy tarraqiyotning rivojlanishiga imkoniyat yaratib, aql va idrok bilan ish yuritishni ta'minlagan. O‘zbek tuprog‘ida bundan ko‘p asrlar ilgari savdo-hunarmandchilik turar joylari, qo‘ni-qo‘snilardan iborat jamoa, so‘ngra esa ana shu joydagি turmush tarzini tashkil qilish mahalla deyilgan³³.

Mahalla – kishilarni uyushib yashashga, mehnat qilishga, hayvonlarni ovlashga, tashqi kuchlarga qarshi hamkorlikda kurashga, nasl-nasabni saqlab qolishga o‘rgatgan. Mahalla – oila ta’lim-tarbiyasining paydo bo‘lishiga, aql-idrok va or-nomusni himoya qilishga imkoniyat yaratib, ilk sinfiy munosabatlarning vujudga kelishiga olib kelgan.

Dastlabki mahallalar belgilari Baqtriya hududida shakllanib, Sopollitepa va Jarqo‘tonda jamoa uyushmalari paydo bo‘lgan. Ushbu jamoalar xo‘jalik boshqaruviga asoslanib, o‘zlarining boshqaruv tizimini yaratganlar hamda jamoaga birlashib, o‘z oqsoqollariga bo‘ysunib, oila va jamoa ishlarini bajarganlar. Jamoalarni birlashtirishning asosi – tashqi muhit, tabiatda yuz bergen turli xil hodisalar, zilzilalar, vulqonlar, suv toshqinlari, sellar, kuchli dovullar, qurg‘oqchilik, hosildorlikning pasayib ketishi sabab bo‘lgan. Jarqo‘tonda markazlashgan dinning shakllanishi bilan birga, jamoalarda ajdodlar ruhiga ibodat kabi diniy qarashlar saqlanib qolganligi manbalar asosida isbotlab berildi. Baqtriyada oromiy yozuviga qadar piktografik belgi va piktografik yozuv turlari mavjud bo‘lganligi Jarqo‘ton va G‘oz yodgorliklari misolida bilamiz. Temir davrida Baqtriya hududidagi mahallalar uyushmasi asosida ilk hududiy davlatlar shakllanib, qabila oqsoqollari harbiy demokratiya boshqaruvi bilan mavjud jamoalarni birlashtirib, shahar va qishloqlarning vujudga kelishiga imkoniyatlar yaratildi. Mahallalar hayoti moddiy madaniyat namunalarida, me’morchilik, shaharsozlik sohalaridagi o‘zgarishlarda, geografik bo‘linish va siyosiy

³³ Шарқ дарвозаси. – Т., 2004. – Б. 192.

boshqaruvda ham o‘z aksini topgan. Ilk temir davrida sak va massagetlar tomonidan rivojlangan me'morchilik inshootlarining paydo bo‘lishida jamoa uyushmalari hal qiluvchi vosita bo‘lib xizmat qilgan. Jumladan, A.S.Sagdullaevning Daratepa, R.X.Sulaymanovning yerqurg‘on, M.X.Isomiddinovning Afrosiyob, Ko‘ktepa kabi yodgorliklarda olib borgan tadqiqotlari Sug‘dning Baqtriya bilan yaqindan madaniy aloqada bo‘lganligini, Baqtriyaning madaniy ta’siri doirasida rivojlanganligini jamoalarga xos manbalar tasdiqlaydi.

O‘rta Osiyo hududlarida tashkil etilgan eng qadimgi mahallalar to‘g‘risidagi ma'lumotlar “Avesto”da va xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida yozilgan Firdavsiyning “Shohnoma” asari orqali bizgacha yetib kelgan. Mahallalarning tashkil topishi diniy e’tiqodlar bilan ham bog‘liq bo‘lib, ayniqsa zardushtiylikning tarqalishi munosabati bilan murdaning o‘rgatilgan it, quzg‘unlarga yedirilishi, etdan tozalangan odam suyaklarini ostodonlarga solib ko‘mish an'anasing yoyilishi kabilarni Qadimgi Baqtriya misolida ko‘rish mumkin.

Janubiy O‘zbekiston hududlarida bronza davriga oid dehqonchilik madaniyatini o‘rgangan akademik Ahmadali Asqarov fikriga ko‘ra, Sopolli va Qadimgi Baqtriya xalqlari til jihatidan bir-birini tushunishgan, natijada Qadimgi Baqtriya tili vujudga kelgan. Bu til mahalliy xalqlarning umumhududiy joylashuvi hamda mahalla bo‘lib ma'lum hududlarni egallab, o‘z manfaatlarini himoya qilishga imkoniyat yaratadi. Taniqli olim T.Shirinov tomonidan Jarqo‘tondan topilgan erkak kishining haykali asosida Baqtriyaning bronza davri aholisining tashqi tuzilishi yevropoid irqiga oid bo‘lib, qirra burun, soch-soqollari qora kishilar bo‘lgan. Mahallalarda yozuv va til vositasidagi jumlalar saqlanib qolib, uzoq vaqt davomida tarixiy jarayonlarda mahalliy tildagi so‘zlar o‘z ahamiyatini yuqotmagan. Mahalliy so‘zlardan eng qadimgi uy to‘rlaridan biri, ya’ni yarim yertula shakldagi “kapa” so‘zi bugungi kungacha yetib kelgan. “Devor” so‘zi qadimgi eron tilidagi “duvara”, ya’ni saroy so‘zidan olingan. Bu terminlar o‘zbek xalqi etnogenezida qadimgi xalqlar va tillar sintezi jarayonining mavjudligidan dalolat beradi. Baqtriya toponomiyasida eroniyl tillarga mansub so‘z va

qo'shimchalardan yuzaga kelgan nomlar miqdori ko'pchilikni tashkil etadi. Jumladan, Surxob (Surxon), Sho'rob, Panjob, Vandob singari gidronimlar joy nomlariga aylangan va "ob" leksikasi toponimlar sirasiga kiradi.

Eng qadimgi xalqlar va tillardan biri yag'nobdir. Baqtriya hududida qadimgi yag'nob va so'g'd tillari asosida yasalgan joy nomlari ham uchraydi. Shunday joy nomlaridan biri Manguzar toponimi bo'lib, "man", "mayn" leksikasi va "guzar" so'g'd tilida qishloq, ovul, daryo kechuvi yaqinida joylashgan manzilni anglatgan. Manguzar qishlog'i Amudaryo bo'yida joylashganligi sabab shunday atalgan. "Man" leksikasi asosida yasalgan yana bir toponimik nom Xushman bo'lib, "xisht", "g'isht" g'ishtli uy, xumdonli qishloq, g'isht tayyorlaydigan qishloq ma'nolarini bildiradi. Qadimgi yozma manbalarda Baqtriya tarixiy geografiyasida, ya'ni tarixiy toponimikasida yunoncha so'zlar uchraydi. Qorasuv yonidagi Sho'rob qishlog'idan bir necha kilometr janubi- g'arbda, Amudaryo yoqasida daryo kechuvini nazorat qiladigan qal'a shakllangan. Bu qal'a hozirgi paytda Sho'rtepa nomi bilan ataladi. Sho'rtepa inqirozga yuz tutgandan so'ng, mil.av. IV asrda uning yonida yangi shahar bunyod etiladi. Bu shahar xarobasi hozirgi kunda Kampirtepa nomi bilan mashhurdir.

Antik davr tarixchilari tilga olgan "Pandaxeyon" shahrini akademik E.V.Rtveladze Kampirtepa o'mida joylashgan, degan fikrni bildiradi. V.V.Bartoldning fikricha, "Pandaxeyon" – "Pandoni" – "Pardagvi" yunoncha so'z bo'lib, "mehmonxona" degan ma'noni anglatgan. XV asr geograflari va tarixchilari, jumladan Xafizi Abro'ning geografiya asarida "Burdoguy" shaklida, XVII asrga oid Mahmud Vali asarlarida ham bayon etilgan.

Hind-yevropa tillari oilasiga mansub xalqlar juda keng tarqalgan bo'lib, insoniyatning katta qismi shu til oilasiga kiradi. Natijada bir necha dehqonchilik o'lkalari birlashib, viloyat tashkil etiladi. Jumladan, Ulanbuluoqsoy va Sherobod dehqonchilik o'lkalari Paretaka viloyatini, poytaxti esa Sheroboddagi Jondavlattepa bo'lgan. Bandixon, Mirshodi, Sangardak dehqonchilik o'lkalari Bubakena viloyatini Surxondaryoning o'rta va quyi oqim dehqonchilik o'lkalari esa Gabaza mamalakatini tashkil etgan.

Mahallalar oqsoqollari jamoani ekin ekish, dehqonchilik va chorvachilik hamda hunarmandchilik bilan shug‘ullanishga yo‘naltirgan, har qanday xavf-xatarlardan saqlagan. Mahalla hududlari oila guruhlari yashaydigan chegaralarga bo‘linib, yerlar mahalliy jamoa boshliqlari tomonidan boshqarilgan. Mahalla boshliqlari va undagi harbiy boshliqlar hudud uchun javobgar hisoblangan.

T.Shirinovning ta'kidlashicha, davlatning shakllanishida mahalla hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qilgan. Uning tahliliga ko‘ra, mahalla O‘rta Osiyoda paydo bo‘lgan boshqaruv usuli bo‘lib, deyarli bir yarim ming yil davomida qo‘llanib kelingan degan fikrni bildiradi.

Qadimgi mahallalar aholisi tarixini antropologik jihatdan o‘rganish natijasida Sopolli aholisi avlodlari eng qadimgi jamoalarni tashkil etib, Surxon vohasida dastlabki mahallalar aynan shu hududda paydo bo‘lgan. Shuningdek tilning turkiy lahjalari shu yerda yaratila boshlangan. Hind-yevropa tillari oilasining shakllanishida baqtriyalik mahallalarning hissasi katta bo‘lib, sanskrit, lotin, slavyan tillarida uchraydigan so‘zlarni keltirish mumkin. “Avesto” terminlari bilan taqqoslash natijasida aytish mumkinki, Baqtriyada hind-yevropa, xindariy, eroniy kabi ko‘plab tillarga oid atamalar uchraydi. Bu esa Baqtriyaning qadimgi sivilizatsiyalarning paydo bo‘lishi va o‘zaro aloqalarida madaniy ko‘prik vazifasini bajarganligini ko‘rsatadi.

Qadimgi Baqtriyada mahalla oqsoqoli nasldan-naslga, avloddan-avlodga o‘tishi Axuramazda tomonidan ta’kidlanadi. M.M.Dyakonovning “Avesto”da ifodalagan voqyealar asosidagi fikri ham diqqatga molik. Uning yozishicha, ““Avesto” davrida mahalla jamoasining moddiy madaniyati ibtidoiy formada bo‘lgan, bu jamoa hali shahar hayoti va umuman shaharlarni bilmaydi. Mehnat taqsimoti, ya’ni dehqonchilikdan hunarmandchilikning ajralganligi to‘g‘risida ma'lumotlar ham yo‘q. Hattoki, mahalla jamoasi temirdan mehnat qurollarini

yasashni ham bilmagan”³⁴. “Avesto”da maxsus hunarmand, kulol, to‘quvchi kabi so‘zlarni anglatgan kanallar qazilganligi to‘g‘risida ma'lumotlarni topishgan. “Avesto” davrida mahalla aholisining ijtimoiy guruhlarga ajralganligi yoki mahalla jamoaning huquqsiz a'zolari (vira, vaesa) haqida ma'lumotlar borligi aniqlangan. Aholi vakillari aslzoda (azata, asna), harbiy (ravaestar), hukmdor (sastar, satar) kabi ijtimoiy qatlamlarga ajratilgan. “Avesto” davri jamoasining ijtimoiy tarkibi: oila (nmana) —> urug‘, urug‘ jamoasi (vis) —> qishloq jamoasi (zantu) —> viloyat, mamlakat (dahyu), ko‘proq oila boshlig‘i (nmanopati), urug‘ oqsoqoli, ya'ni boshlig‘i (vispati), jamoa boshlig‘i (zantupati), viloyat, mamlakat hukmdori (dainhupati) kabi ijtimoiy tushunchalar ham aniqlangan.

“Avesto” davri jamoasi uch qismdan – “ratayshtar”, “atryan” va “vastrofshuyant”dan iboratligi aniqlangan. I.N.Pyankovning ilmiy xulosasida, “ratayshtar” arxeologik jihatdan platformalar ustiga qurilgan arklarda (Kuchuktepa, Tillatepa, Yazdepa), “atryan” arklar atrofida qad ko‘targan qal’asifat qo‘rg‘onlarda (Bandixon), uchinchi qatlam “vastrofshuyant” esa arksiz qishloqlarda yashagan aholiga mengzalgan (Qizilcha yodgorliklari majmuasi). Arklar atrofida qaram aholi, arksiz qishloqlarda esa ozod dehqonlar istiqomat qilishgan. A.A.Askarov Sopollitepa aholisining, T.Sh.Shirinov Jarqo‘ton ilk temir davri aholisining ijtimoiy tarkibini “Avesto” jamoasi bilan taqqoslashgan.

Ma'lumki, aholining antagonistik sinflarga ajralganligini bildiruvchi arxeologik belgi, ya'ni arklarning paydo bo‘lishidir.

O‘rta Osiyoda mahalla aholisining ko‘p qismi chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullanib, kanallar qaziganligi Bandixon kanali misolida E.V.Rtveladze tomonidan o‘rganilgan. Zardushtiylikda kanallar qazish, bug‘doy undirish yaxshilikning yomonlik ustidan g‘alabasi deb tushunilgan. Dehqonchilik bilan bog‘liq bo‘lgan qurol-aslahalar mahallalarda tayyorlanganligi ilmiy izohlanib “Avesto”da mahalla jamoasini to‘rt asosiy qismga bo‘ladi. Uy, oila jamoasi – “nmana”, “dmana”, urug‘ jamoasi – “vis”, qabila – “zantu”, qabilalar ittifoqi –

³⁴ Дьяконов М.М. Истории мидии от древнейших времен до конца IV века до н.э. – М., - Л., 1956. – С. 7-48.

“daxiyu” deb atalishini yozadi. Oila, urug‘ va qabila boshlig‘ini anglatish uchun “pati” so‘zi ishlatilganligini, ya’ni “nmanopati”, “vispati”, “daxiyupati”, deb atashgan. “Daxiyu” so‘zi viloyat ma’nosini ham anglatgan. Mahalla oqsoqollar kengashi – “varzanopati”, “xanjamana”, xalq yig‘ilishi (majlisi) – “v’yaxa” deb atalgan, degan xulosaga kelgan.

Mahallalarning shakllanishida hal qiluvchi omil hisoblangan oila haqida ko‘plab tarixiy ma'lumotlar mavjud bo‘lib, oilaning kelib chiqishi qadimgi yozma manbalarda quyidagicha izohlangan. “Avesto”da oila “nmana”, oila boshlig‘i “nmanapati” deb atalib, bu oddiy oila hozirgi oilalardan tubdan farq qiladi, ota-onada va bolalar birga yashaydigan zamonaviy oilani tushunmaslik kerak. Agar shunday bo‘lganda oilani otalar boshqargan, degan ma'lumot bo‘lar edi. Nmana deganda, birga hayot kechiradigan, bir qozondan ovqat yeydigan bir va bir necha oilalarni tushunish kerak. “Nmanapati” mana shu birga xo‘jalik yuritadigan, yirik oilani boshqargan. Nmana oilasini bir qolipga solib bo‘lmaydi, ayrim oilalar katta patriarchal, ayimlari kichik bo‘lgan.

Qadimgi Baqtriyaning qishloqlari arxeolog olim A.S.Sagdullaev tomonidan Qizilcha 6 yodgorligi misolida yaxshi o‘rganilib, topiilgan uy-joy bir oilaga – nmanaga mo‘ljallab, to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida, old tomonida chorborg‘lari bilan qurilgan. Xuddi shu singari yodgorliklar Mirshodi daryosi bo‘yida, Qiziltepa shahar yodgorligi atrofida 11 tani tashkil etadi.

Baqtriyada mahalla oilalari va ularning ijtimoiy hayotdagি o‘rni oilaning nufuziga qarab belgilangan. Kuchuktepa mahallalarida oddiy oila yashamagan. U baland platforma ustiga qurilgan qo‘rg‘on hamda mudofaa devoriga ega bo‘lib, hukmdor oila uyi, shakllanib kelayotgan aristokratlarga tegishlidir.

Bandixon mahallalaridagi oilalar ko‘proq dehqonchilik bilan shug‘ullangan, ularning uylari tekis maydonda, dehqonchilik dalasi hududida qurilganligi shu fikrni aytishga asos bo‘ladi. Harbiy istehkom, jumladan, Talashqon I yodgorligiga ko‘ra, mudofaa devorlari bo‘ylab, burjlar oralig‘ida qurilgan mahalla uylarida shu qal'a mudofaasi bilan shug‘ullangan harbiylar yashagan bo‘lishi mumkin. Talashqon yodgorligining mudofaa devorlari mustahkam bo‘lganligi bilan,

qal'aning ichki qismida mahalla aholisi uchun qurilgan uylarning devorlari mavsumiy uylarning devorlarini eslatadi. Qadimgi Baqtriya madaniyati mahalla jamoa davri yodgorliklari shahar, qishloq, qo‘rg‘on, qal’alarda joylashaganligini aniq belgilab bergen.

Mahallalar hududida sug‘oriladigan, dehqonchilik qiladigan yer maydonlari, chorva mollarini boqadigan yaylovlari bo‘lgan. Bandixon mahallalari hududida O‘rta Osiyoda eng qadimgi kanal o‘rni o‘rganilgan bo‘lib, sun‘iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilikka asos solinganligidan dalolat beradi. “Avesto”ning eng qadimgi Gat qismlarida mahalla aholisining ko‘p qismi asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan, dehqonchilikdan ko‘ra chorvachilik bilan ko‘proq shug‘ullanganligi e’tirof etiladi. Unda sug‘orma dehqonchilikning bo‘lganligini tasdiqlovchi, ya’ni kanallar qazilganligi to‘g‘risidagi ma'lumotlar bor. Shimoliy Baqtryadagi eng qadimgi kanal ham Kuchuk I davriga to‘g‘ri keladi. Bu Bandixon kanali bo‘lib, E.V.Rtveladze tomonidan o‘rganilgan va Bandixon I davrida qazilganligi ta’kidlangan.

O‘zbekiston hududida Buxoro, Vobkent, Romitan, Qorako‘l, Zarafshon, G‘ijduvon, Numijkat, Foxira dehqonchilik mahalla markazlari o‘zining moddiy madaniyati bilan ajralib turgan. Zarafshon hududiga qarashli Jizzax viloyatidagi Arnasoy, Baxmal, Jizzax, Forish, G‘allaorol, Dashobod, Marjonbulq dehqonchilik mahallalari nihoyatda rivojlanib aholi turmush darajasi madaniy jihatdan yuksalgan. Qadimiy moddiy madaniyatga ega Navoiy hududida Qizilqum, yetimtov, Tomditov, Nurota sun‘iy va lalmikor sug‘orish manzilgohlarida dehqonchilik bilan birga chorvador aholi istiqomat qilib, o‘ziga xos mahalla udumlarini asrlar osha taraqqiy ettirib kelganlar.

Farg‘ona vodiysi O‘zbekiston hududida yuksak moddiy va ma’naviy madaniyatga ega bo‘lib, aholining qadimiy joylashuvi – mahalla tarzida urfodatlari va udumlarini har tomonlama milliy-ma’naviy qadriyatlar uzviyligida rivojlantirgan. Andijon vohasining Qoradaryo, Moylisuv, Oqbura, Aravonsov mahallalari aholisi o‘zining dehqonchiligi, hunarmandchiligi, savdo-sotiq ishlari bilan alohida ajralib turgan. Namangan vohasining Kosonsoy, Norin, Pop,

To‘raqo‘rg‘on, Chortoq, Chust, Uchqo‘rg‘on, Mingbuluoq, Namangan, Uychi, Poshshootasoy, G‘ovasoy, Chordaksoy kabi shaharlar va tumanlar mahallalari moddiy-ma'naviy madaniyatimiz rivojiga munosib hissa qo‘sghanlar. Farg‘ona vohasining Qo‘shtepa massivi va Yozyovon dashtlari, Sirdaryo, Isfara, So‘x, Shohimardon, Isfarasoy sug‘orish hududlari mahallalari urf-odatlari, boy ma'naviy merosi bilan ajralib turadi.

Shunday qilib, qishloqlar ham mahallaning joylashuviga asoslanib topografik jihatdan ikki turga ajratiladi. Shaharga yaqin qishloqlar tarqoq holda joylashgan uylar majmuasidan iborat bo‘lsa, shahardan uzoqda alohida irrigatsion hududda joylashgan qishloqlar arkli bo‘lib, shakllanib kelayotgan aristokratlarni eslatadi. Mahallalarni xo‘jalik tizimida sun'iy sug‘orish muhim omil hisoblangan. Mahalla dehqonchiligida alohida ahamiyatga ega quduq usuli bilan sug‘orish, ayniqsa Surxon vohasida keng tarqalgan edi.

O‘zbekistonning eng go‘zal shaharlaridan biri bo‘lmish Namangan o‘zining betakror tabiatni, noyob asori-atiqalari va asosiysi halol mehnatkash, imon-e’tiqodli odamlari bilan shuhrat topgan. Namangan shahrida olis o‘tmishning ko‘pgina yodgorliklari hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Tuproq ostida qolib ketgan qadimgi shahar harobalari, qal’alar, o‘rta asrlarga taalluqli yirik ibodatxonalar va ko‘plab maqbaralar shular jumlasidandir. Bu inshootlarda mahalliy me’morlarni san’ati o‘z ifodasini topgan. Hozirga qadar saqlanib qolgan yodgorliklar orasida shahrimiz zaminida mavjud bo‘lgan tarixiy obidalar salmoqli o‘rin egallaydi.

Namangan shahrida bugungi kunda “Xo‘jamning qabri” (XVIII asr), “Azizxo‘ja madrasasi” (XVIII asr ikkinchi yarmi), “Mavlaviy Namangangoni” maqbarasi (XVIII asr boshi), “Mulla Qirg‘iz” madrasasi (XX asr boshi), “Atoullohxon to‘ra” masjidi (1915 yy.) va boshqa bir qator tarixiy obidalar viloyatimiz zaminida to‘g‘ilib voyaga yetgan usta-me’morlar tomonidan bunyod etilgan. Ana shunday me’moriy obidalardan biri Ko‘zagarlik ko‘chasidagi “Xo‘jamning qabri” maqbarasidir³⁵. Maqbara XVIII asrga oid me’moriy obida

³⁵ Юсупов И.Ю., Мирзалиев Э.Ю. Наманган вилояти меъморий обидалари сирлари. - Наманган, 2008. - Б. 30.

bo‘lib, uning qurilishida o‘sha davrdagi mohir me'morlar ishtirok etishgan va maqbara juda nozik did bilan barpo etilgan. Maqbara binosini bezashda o‘yma sopol qo‘llanilgan, bu esa XIV asrlardagi bezak usulidan foydalanilganligini ko‘rsatadi. Bino peshtoqi ravoqsimon, arkli va burchakli kichik minorali qilib ishlangan. Peshtoq qoplamasi va binoning ichi ham rangli sirkor koshinlar bilan bezatilgan. Maqbaraga kiraverishdagi uymakor eshik ustiga “Amali usto Muhammad Ibrohim ibn Abdurahim”, ya’ni “Abdurahim usta Muhammad Ibrohim o‘g‘li ishladi”deb yozib qo‘yilgan. Bu maqbara Namangan shahridagi tarixiy obidalar ichida eng yoshi ulug‘i sanaladi.

Xo‘jamning qabri maqbarasi bilan yonma-yon qurilgan ikkinchi obida Azizzxo‘ja eshon madrasasidir. Ushbu madrasa XVIII asrning ikkinchi yarmida Ibrohimxo‘janing jiyni, Azizzxo‘ja tomonidan qurilgan. Madrasa qurilishida asosan Namanganlik usta-me'morlar ishtirok etishgan. Madrasa 24 xujra, bir darsxona, bir qaznoq hamda masjiddan iborat bo‘lgan³⁶.

Madrasa xujralarida tez-tez g‘azalxonlik kechalari bo‘lib turar edi. Bunday kechalarda Namangandagi madrasalarda ta‘lim olayotgan talabalar to‘planishgan. Xatto yig‘ilishlarda bir necha marta Nodim Namangoniyning do‘sti, Qo‘qonlik ma'rifatparvar shoir Muhammad Aminxo‘ja Muqimiyl xam qatnashgan.

O‘rta Osiyoda noyob hissoblangan Atoullohxon to‘ra masjidi “Sumalak guzar” mahalla markazida, Uychi ko‘chasida joylashgan. Masjid Xalifa Abdulaziz (Majzub) Namangoniyning nabirasi, o‘z zamonasining ma'rifatparvar boylaridan bo‘lgan Atoullohxon to‘ra (xalq tilida Otavalixon to‘ra deb atalgan) tomonidan qudirilgan³⁷. Muqaddam uning o‘rnida bo‘lgan Jome' masjidi XX asrda Markaziy Osiyoning o‘sha davrga xos bo‘lgan yog‘och o‘ymakorligi hamda sirkorlik san'atini o‘zida mujassam etgan binolaridan biri bo‘lgan. Biroq, 1914 yildagi kuchli zilzila va ro‘y bergen yong‘in natijasida binoga katta shikast yetadi. Masjid imomi Atoullohxon to‘ra bu bino o‘rnida yangi masjid qurish ishiga kirishadi. Masjid qurilishi 1915 yildan boshlanib, unga Namanganlik Ibrohim me'morning

³⁶ Намангандаги ҳакикати. 2006 йил. 22 ноябр.

³⁷ Саматов У. Уста Қирғиз излари, издошлари. - Наманганд, 1999. - Б. 10-11.

o‘g‘li Usta Qirg‘iz boshchilik qilgan. Qurilishga ketgan sarf-harajatlarning asosiy qismini Atoullohxon o‘z zimmasiga oladi. 1918 yilga kelib Atoullohxon to‘ra va usta Mulla Qirg‘iz o‘rtalarida yuzaga kelgan kelishmovchiliklar oqibatida qurilish ishlari vaqtinchalik to‘htab qoladi. Oradan bir necha yil o‘tgach, masjid qurilishi ya’na davom ettirilib nihoyasiga yetkazilgan.

1927 yilga kelib bolsheviklar hukumatining qaroriga ko‘ra butun mamlakatda xalqimiz diniy e’tiqodi va diniy muassasalariga qarshi kurash boshlandi. Buning natijasida Atoullohxon to‘ra masjidi ham yopib qo‘yildi. Masjid binosidan 1929 yildan keyin turli tashkilotlar turli maqsadlarda foydalanganlar.

Namangan shahridagi tarixiy yodgorliklardan ya’na biri Mulla Qirg‘iz madrasasidir. Ushbu madrasa shaharning eski qismidagi Chorsu maydonida joylashgan bo‘lib, 1910 - 1912 yillarda Usta Mulla Qirg‘iz tomonidan barpo etilgan³⁸. Ma'lumotlarga ko‘ra, madrasa uch yil davomida qurilgan. Madrasa Mulla Qirg‘iz Mashrabboy o‘g‘li mablag‘i hissobidan bunyod etilgan. Mulla Qirg‘iz madrasasining umumiyligi maydoni 600 kv.m bo‘lib, unda 43 ta xujra va 3 ta katta gumbazi bo‘lgan. Bino Mirzadaboy va Toshboltaboy degan ustalar yasagan to‘g‘ri burchakli pishiq g‘ishtdan tiklangan. Madrasada asosan mahalliy boylarning farzandlari tahlil olishgan. Madrasaning o‘ng tomonida joylashgan darsxona hamda masjidning qurilish usuli, tashqi va ichki me’moriy ko‘rinishi diqqatga sazovordir. Ular ustiga baland gumbazlar ishlanib, ustiga esa xona ichkarisiga yorug‘lik tushib turishi uchun xashta o‘rnatilgan³⁹. Mulla Qirg‘iz madrasasi binosida 1970 yildan 1990 yilgacha O‘zbekiston tarixiy va madaniy yodgorliklarni saqlash jamiyatni viloyat bo‘limi faoliyat yuritib keldi. 1990 yil oxiridan boshlab O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari idorasi ruhsati bilan Mulla Qirg‘iz nomli islom bilim yurti (madrasa) tashkil etildi. Ushbu bilim yurti 1991–1997 yillarda Mulla Qirg‘iz madrasasi binosida faoliyat ko‘rsatdi. 1998 yil 25 dekabrdagi Namangan shahar xokimining qarori⁴⁰ bilan mazkur bilim yurti shaharning Uychi

³⁸ Балаев А.А. Материалы экспедиции по фиксации памятников монументальной и жилой архитектуры по Наманганской области. 1948. – С. 144.

³⁹ Бородина И.Ф. Дневник обследования с описанием памятников архитектуры Ферганской долины (жилых домов, квартальных мечетей, медресе и мавзолеев). 1954. – С. 57–58.

⁴⁰ Наманган ҳакиқати. 2005 йил. 21 январ.

ko‘chasidagi sobiq Atoullohxon to‘ra masjidi (halq orasida Gumbaz Masjid nomi bilan atalgan) binosiga ko‘chirildi va hozirgi kungacha o‘sma maskanda faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Mulla Qirg‘iz madrasasida esa ta‘mirlash ishlari olib borilmoqda.

Namangan shahridagi me’moriy obidalardan ya’na biri Mavlaviy Namangoniy maqbarasi bo‘lib, u Shimoliy Farg‘ona kanalining o‘ng sohilida joylashgan. Maqbara qurilish tarixi haqida yozma manbalar yo‘q. Lekin, maqbara ichkarisidagi devorda bitilgan yozuvlarga ko‘ra maqbaraning birinchi ta‘miri milodiy 1805 yilda bajarilgan⁴¹. Mazkur so‘zlarga asoslanib maqbara 1805 yilda bo‘lgan ta‘miridan taxminan 50 yillar avval, ya’ni 1755 yillarda qurilgan degan xulosaga kelish mumkin. Agar shunday shunday bo‘lsa, demak maqbara Mullaxo‘ja eshon vafotlaridan ancha yillar oldin qurilgan bo‘ladi. Shuningdek bu-maqbara emas, balki ziyoratxona sifatida qurilgan. Maqbaraning ikkinchi ta‘miri milodiy 1905 yilda, ya’ni birinchi ta‘miridan yuz yil o‘tgandan so‘ng bo‘lgan. Ayrim tadqiqotchilar esa bu maqbara 1805-1806 yillarda qurilgan deb xissoblaydilar. Maqbaraning ikkinchi ta‘mirida naqqosh ustalardan Zokir Oxun, usta Xusayn va usta Abdurazzoq naqqoshlar ishlagani haqida yozib qoldirilgan.

Namanganlik shoir Mulla Otaxon Nisoriy 1957 yilda uchinchi ta‘mir jarayonida maqbara tarixi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha tarixiy yozuvlarni qaytadan tiklaydi. Bu yozuvlardan ma'lum bo‘lishicha, maqbara atrofiga uch piri komil dafn etilgan va bu Mavlaviy Mullaxo‘ja Eshonning avlodlari bo‘lishgan.

Bundan tashqari Namangan shahrida Mulla Bozor Oxund majmuasi (XVII asr), Mahdum Eshon masjidi (XVIII asr), Orifboy masjidi (1798 yil), Langar masjidi (1850 yil), Terakzor masjidi (1848 yil), Kurashxona masjidi (1887-1888 yil), Alo boy masjidi (1912 yil), Rajab-Azimboy masjidi (1912 yil), Eshon shayx masjidi (1913 yil), Otaxonboy masjidi (1923 yil) va boshqa ko‘plab noyob obidalar qurilgan bo‘lib ularning ko‘plari hozirga qadar saqlanib qolmagan. Bunday yodgorliklar o‘tmish ajdodlarimiz san’ati va madaniyatining yorqin namunalari

⁴¹ Азимов И. Фарғона водийсининг архитектура ёдгорликлари. – Т.: Ўзбекистон, 1986. – Б. 59.

xissoblanadi. Ana shunday yodgorliklar tarixini o'rganish va tadqiq etish har birimizning burchimizdir.

Namangan uezdi ham 1876 yil 6 martda tashkil qilingan. Uezd markazi Namanganning eski shahrida 12100 xonodon, 331 masjid, 11 qabriston, 120 dan ortiq boshlang'ich va o'rta maktab bo'lgan. Shahar aholisi 73 ming kishi, ulardan 900 ta rus bo'lgan. XX asrning boshlarida shaharning yangi qismida 60 xonodon (aksariyati yevropolik aholi), uezd ma'muriyati, kazarma, pravoslav cherkovi, bilmi yurti, rus-tuzem maktabi, pochta-telegraf, kasalxona, harbiylar uy va xiyobon joylashgan edi⁴². 1881 yilga kelib Namangan uezdida 12 volost bo'lib, ular qishloq jamoalari va ovullarga bo'lingan edi⁴³. 1897 yilgi ma'lumotlariga qaraganda Namangan uezdida 26 ta paxta tozalash zavodi, 1 tadan vino va pivo zavodlari, 726 ta tegirmon, 1231 ta yog' tegirmoni⁴⁴, 32 ta sovun ishlab chikarish korxonasi, 15 ta cho'yan quyish korxonasi, 78 ta kulolchilik, 30 charm korxonasi, 12 g'isht zavodi, 49 to'quv, 67 ta ipak ishlab chiqarish korxonasi va 45 ipak yiguruv korxonasi bo'lgan⁴⁵.

Jamiyatimizda yirik qatlamlardan biri bo'lган yoshlar ijtimoiy taraqqiyot rivojida muhim o'rin tutib kelmoqda. Shu bois, yoshlar tafakkurini shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Mahalla ijtimoiy institut sifatida yoshlar dunyoqarashining o'sishida, ularni milliy g'oya ruhida tarbiyalashda ham yetakchi mavqyega ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov: «Ma'lumki, azaldan o'zbek mahallalari chinakam milliy qadriyatlar maskani bo'lib keladi. O'zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan xabar olish, yetim-yesirlarning boshini silash, to'y-tomosha, hashar va ma'rakalarni ko'pchilik bilan bamaslahat o'tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo'lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an'analar

⁴² Ўша жойда. – С. 703-704.

⁴³ Сведения об отделении Намангансского уезда на волости, общества и числа домов и кибиток... / ЎзР МДА. И-19- фонд, 1- рўйхат, 635- иш, 29-36- варак.

⁴⁴ Бу саноат соҳасининг вилоятдаги ўрни хақида қаранг: Гофмейстер В.Г. Использование семян хлопчатника в Средней Азии. – Санкт-Петербург, 1914. – С.2. Шу муаллифнинг маълумотига қараганда, 1909 йили вилоятнинг бешта уездига 4334 ёғ тегирмони бўлиб, унда 4545 нафар ишчи ишлаган.

⁴⁵ ЎзР МДА. И-19- фонд, 1- рўйхат, 5512- иш, 29- варак. Яна қаранг: Хлопководство в Намангансском уезде / Ежегодник Ферганской области. Том II, выпуск 1903 года. – Новый Маргелан, 1903. – С.14-167.

avvalambor mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan»,⁴⁶ – degan edilar. Demak, mahalla milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylab, rivojlantirish bilan bir qatorda ularning targ‘ibida, ya’ni mahalla a’zolari, shuningdek yoshlar tafakkuri rivojida ham muhim ahamiyat kasb etib kelayotganligi e’tiborlidir.

Ma'lumki, «Mahalla» atamasi arabcha bo‘lib, «o‘rin-joy» degan ma’noni anglatgan. U turli mintaqalarda mahallot (joy), guzar, jamoa, elat nomlarda atalib kelingan. Ilmiy hamda tarixiy adabiyotlarda mahallalarning ko‘p ming yillik tarixga ega ekanligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Macalan, Narshaxiy o‘zining «Buxoro tarixi» asarida Buxoroda bundan 1100 yil ilgari bir qancha mahallalar bo‘lganini qayd etib o‘tgan. Alisher Navoiy o‘zining «Hayrat ul-abror» asarida mahallanini «mahalla shahar ichidagi shaharcha»dir, deb ta’riflab, Hirot shahri yuz shaharcha ahamiyatiga ega bo‘lgan mahallalardan tashkil topganligini aytib o‘tadi. Mahallalar, ayniqsa, Amir Temur davrida ravnaq topgan. Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davomida mahallalar fuqarolarning kasb-kori asosida shakllangan va shunga qarab nomlangan. Masalan, zargarlik, misgarlik, ko‘nchilik, pichoqchilik, qoshiqchilik, temirchi, egarchi, taqachi va hokazo kabilar⁴⁷.

Mahallaning asosiy vazifalari: marosimlarni birgalikda o‘tkazish, o‘z hududini batartib saqlash va obodonlashtirish asosida yosh avlodni tarbiyalash, jamiyat hayotida tartib saqlanishini ta’minlash, barcha an'anaviy me'yorlarning bajarilishi ustidan nazorat o‘rnatish, urf-odatlarga rioya qilmagan hamda ularni buzgan, jamoat majburiyatlaridan bo‘yin tovlaganlarni jazolashdan iborat bo‘lgan. Mahalla rahbariyati ariq-hovuzlarni tozalash, ko‘chalar, yo‘llar qurish va mahalla obodonchiligi bilan bog‘liq boshqa jamoat ishlarini uyushtirganlar. Bu ishlarning barchasi birgalikda hashar yo‘li bilan amalga oshirilgan. Demak, mahallada bo‘lib o‘tadigan ijtimoiy-madaniy jarayonlar bevosita yoshlar tafakkurining shakllanib, qadriyatlarimizga ijobiy munosabatlarning qaror topishida ham muhim ahamiyat kasb etgan.

⁴⁶ Ислом Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – Б. 58.

⁴⁷ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 5-жилд. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2003. – Б. 549–550.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, ijtimoiy-tarixiy qadriyat sifatida mahallalarga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Mamlakat Konstitutsiyasining 105- moddasiga va 1993 yil sentyabrda qabul qilingan «Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida»gi qonunga binoan, mahallalar o‘z huquqiy maqomiga ega bo‘lib, jamiyat va davlatning joylardagi muhim tayanchi, yuridik shaxs sifatida o‘z mol-mulkiga, moliyaviy byudjetiga, bankdagi hisob-kitob raqamiga – jamg‘armasiga ega bo‘ldi. Bu qonunga asosan, har bir mahalla o‘z hududida ishlab chiqarishni tashkil etishi, kichik korxonalar ochishi, o‘zi ishlab chiqargan mahsulotni sotishi, uning bir qismini mahalladagi ehtiyojmandlarga bepul tarqatishi, o‘z hududidagi aholini ish bilan ta'minlashi, aholiga madaniy-maishiy xizmat ko‘rsatishi mumkin. Ushbu jihatlar mahalla hududida obodonchilik, o‘zaro ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash kabi xususiyatlar rivojini ta'minlash bilan bir qatorda yoshlar dunyoqarashining o‘sishida ham muhim rol o‘ynadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning tashabbusi bilan 2003 yil O‘zbekistonda «Obod mahalla yili» deb e’lon qilindi. Shu munosabat bilan O‘zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2003 yil 7 fevralda qabul qilgan «Obod mahalla yili» dasturiga binoan, mahalla nufuzini ko‘tarishga qaratilgan muhim vazifalar amalga oshirildi.

Hozirgi paytda mahallalarning bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida, o‘z faoliyatlarini tashkil etib, mustaqil yurt farzandlari tafakkurida ijobjiy qirralarni shakllantirish borasida barcha imkoniyatlar yaratilayotganligi quvonarlidir. Chunonchi, mahallalar, to‘y-ma'raka marosimlarini o‘tkazish, hasharlar uyushtirish, oilaviy nizolarni bartaraf etish, bemorlar holidan xabar olish kabi tadbirlarni bajarishda yetakchilik qilishmoqdaki, bu yoshlar tafakkuri rivojida ham muhimdir.

XVI – XIX asrning birinchi yarmida O‘rta Osiyo xonliklarida faol ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar kechgan markazlar shaharlar edi. Bu jarayonlarda etnik va ijtimoiy tarkibi turlicha bo‘lgan aholi muhim rol o‘ynagan. Ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlarda bu aholining shahar iqtisodi va madaniyati taraqqiyotidagi ishtiroki

o‘zining muayyan tahlilini topgan. Biroq O‘rta Osiyo xonliklarining turli markazlarida yashagan va faoliyat ko‘rsatgan aholi vakillarining bo‘sh vaqtini qay tarzda o‘tkazgani, qanday hordiq chiqargani masalasi bugungi kunga qadar o‘zining atroflicha talqinini topmagan ilmiy muammolardan hisoblanadi. Ushbu muammoning ayrim qirralarini XVI – XIX asrning birinchi yarmidagi O‘rta Osiyo shaharlari hayotiga oid ba’zi ma'lumotlar orqali kuzatish mumkin.

Ma'lumki, XVI – XIX asrning birinchi yarmida, oldingi davrlarda kuzatilgani kabi O‘rta Osiyo shaharsozlik madaniyati rivojlangan hudud hisoblangan. U sharq tijorat dunyosining yirik markazlaridan biri hisoblangan Buxoro, o‘zining betakror me'moriy qiyofasi, madaniyati, iqtisodiy hayot rivojining yuqori ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan Samarqand, Xiva, Toshkent, Qo‘qon, Qarshi va boshqa shaharlari bilan mashhur edi.

O‘rta Osiyo xonliklari shaharlari o‘zining asosiy funksiyalaridan tashqari aholining bo‘sh vaqtini to‘g‘ri sarflashi va hordiq chiqarishida muhim rol o‘ynagan. Aholi hordig‘ining yanada samaraliroq bo‘lishi uchun shaharlarda mavjud shart-sharoitlarning ahamiyati katta edi. Shaharlarning qurilishi va madaniy hayotida ularda o‘tkazilgan ariqlar va hovuzlar muhim o‘rin tutgan. Ular shaharlar aholisini suv bilan ta'minlabgina qolmay, ulardagi madaniy hordiq chiqarish joylari vazifasini ham o‘tagan. Bunday joylardan biri vazifasini Buxorodagi Labi-Hovuz o‘tagan. U «ancha to‘g‘ri kvadrat shakliga ega bo‘lib, uning o‘rtasida chuqurligi 100 fut va 80 fut kenglikka ega, atroflariga to‘rtburchak g‘ishtlar yotqizilgan hovuz bor edi». Hovuz atrofi «go‘zal daraxtlar» bilan burkangan bo‘lib, bu yerda choyxonalar joylashgandi. Labi-Hovuzning uch tomonida «qalin soyabonlar ostida shirinliklar, sabzavotlar, issiq va sovuq ovqatlar sotilgan»⁴⁸. Bu yerda shahar ahli va ushbu markazga turli maqsadlarda kelgan aholi ham dam olib, o‘z hordig‘ini chiqargan.

Shahar ahli ko‘p hollarda bo‘sh vaqtini turli sport o‘yinlarida ishtirok etish bilan ham o‘tkazgan va hordiq chiqargan. Shaharlarda turli sport o‘yinlari keng

⁴⁸ Вамбери А. Путешествие по Средней Азии (Из Тегерана через турк. пустыню по вост. берегу Каспийского моря в Хиву, Бухару и Самарканد, предпринятое в 1863 году с научною целью по поручению венгер. академии в Пеште, членом ея А. Вамбери. М.: Изд. А.И. Мамонтова, 1867. С. 145.

rivojlangan edi. Ulardan biri haqida XVI asr muarixi quyidagi ma'lumotni keltiradi. Uning yozishicha, ro'za tugaganligi va Amazon hayitini Buxorodagi Chahorbog'da nishonlagan Shayboniyxon qo'shinlarining «hamma ulug'vor sultonlari» qovoqqa nayza otish musobaqasini «xon» huzurida o'tkazgan edilar⁴⁹. XVIII asr muallifi Mir Muhammad Amin Buxoriy ham sport o'yinlari elementlari mavjud bo'lgan tomoshalar haqida xabar beradi. Muarrix Ubaydullaxon Samarqandda bo'lganida «turli dovyurak odamlar va musht bilan bellashuvchi kurashchilar ikkita egri-bugri xanjar bilan hukmdor oldida o'zaro kurashdilar», deb qayd etadi⁵⁰. Sport o'yinlari o'sha davr musavvirlarining ham nazaridan chetda qolmagan. Bu o'rinda «Boburnoma»ga ishlangan miniatyuralarning birida chavgon o'ynayotgan sultonlar aks ettirilganligi xarakterlidir.

Shaharliklar, asosan, uning yuqori tabaqa vakillari turli qushlar bilan ovda qatnashishni xush ko'rganlar. Bu o'rinda Buxoroda avvaliga hukmdor ov qushlari va ov otlariga javobgar qushbegi lavozimining bo'lganligini eslab o'tish joizdir. 1840 yil ma'lumotlariga ko'ra, xivaliklar asosan «burgut, jayron va turli qushlarni tutish» bilan ham bo'sh vaqtlanini maroqli o'tkazishga harakat qilganlar⁵¹.

Aholining hordig'ida shaxmat o'yini ham katta o'rin tutgan. XIX asr rus mualliflarining quyidagi ma'lumoti bu o'rinda diqqatga sazovordir. Ular, xivaliklarning shaxmat o'yinida mohir ekanliklari haqida yozar ekanlar, bu o'yin xonlikda «deyarli bizdagidek o'ynaladi», deb qayd etgan edilar⁵².

Madaniy hordiq chiqarish mumkin bo'lgan jamoat joylari O'rta Osiyoning turli shaharlarida ko'plab mavjud edi. Ularning biri haqida A.Vamberi xabar beradi. Bu o'ziga xos dam olish joyi Qarshida joylashgan bo'lib, bu haqida XIX asr muallifi: «Men Qarshida omma uchun ochiq dam olish joyini ko'rib hayratga tushdim. Bunday joyni nafaqat Buxoro va Samarqanddagina emas, hatto Eronda ham ko'rish mumkin emas. Bu daryo sohilidagi katta bog' bo'lib, u qalandar-xona deb ataladi. Unda xalq tushdan – soat ikkidan yarim kechadagi soat birgacha

⁴⁹ Фазлаллах ибн Рузбехан Исфахани. Михман-наме-ийи Бухара (Записки бухарского гостя) / Пер. Джалиловой Р.П. Под. ред. Арендса А.К. М.: Наука, 1976. С. 114.

⁵⁰ Мир Мухаммед Амин-и Бухари. Убайдулланаме / Перевод с тадж. с примеч. чл.-корр. АН УзССР профес. Семенова А.А. Т.: Фан. 1957. С. 56.

⁵¹ Хива или географическое и статистическое описание Хивинского ханства. М., 1840. С. 69.

⁵² Ўша ерда.

yuradi. Bu yerning turli joylarida samovarlar qaynaydi, uning atrofida ayrim guruhlar to‘planadi», deb qayd etgan edi⁵³. O‘zi yevropalik bo‘lgan, yevropa va Osiyoning ko‘pgina shaharlarini ko‘rgan muallifning bu yuqori bahosi O‘rta Osiyo shaharlarida aholining hordig‘ini tashkil etishga katta e’tibor qaratilganligini ko‘rsatadi.

Aholining hordig‘ida muhim o‘rin tutgan jamoat joylari Toshkentda ham bo‘lgan. Bu vazifani shahardagi bir tepalik bajargan. 1830 yilda Toshkentda bo‘lgan Xorunjiy Potanin «Toshkent shahrining o‘rtasida ancha baland bo‘lgan tepalik bo‘lib, aholi unda tez-tez xursandchilik qilish uchun to‘planadi. Men ham unga shaharni yaxshiroq kuzatish uchun chiqdim. Shahar ko‘plab mevali daraxtlarga ega bo‘lib, xuddi o‘rmon ichida turganga o‘xshaydi», deb qayd etgan edi⁵⁴.

Yirik madaniyat markazlari bo‘lgan O‘rta Osiyo shaharlari aholisining hayotida turli bayramlar muhim o‘rin tutgan. Ularning mavjudligi va nishonlanish tantanalarini kuzatish bu bayramlarning shaharlar madaniy hayotida tutgan o‘rnini, shaharliklarning hordig‘ini to‘g‘ri talqin qilishga yordam beradi. Bunday bayramlar jumlasiga hayitlarni kiritish mumkin. Mir Muhammad Amin Buxoriyning ko‘rsatishicha (XVIII asr boshlari), Balxga yurish bilan ketayotgan Buxoro qo‘shinlari «Qarshida Qurbon hayitini nishonlash uchun to‘xtaganlar»⁵⁵.

Ramazon oyidan keyin keladigan Ramazon hayitiga va Qurbon hayitiga aholi ham katta tayyorgarlik ko‘rgan. Madrasalarda Ramazon oyida va uch yoz oyida talabalarga ta’til berilgan. Shaharlarda, A.Xoroshxinning ko‘rsatishicha, yilda uchta bayram – «yangi yil (sersol)», «Ro‘za hayiti va Qurbon hayiti» keng o‘tkazilar edi. Shu muallifning yozishicha, Yangi yil va Ro‘za-hayiti Toshkentda «Shayxontohur bog‘ida va boshqa jamoat joylarida nishonlangan. Qurbon hayitini nishonlash uchun esa katta-kichik toshkentliklar Toshkentdan 12 chaqirim narida...

⁵³ Вамбери А. Путешествие по Средней Азии... С. 190.

⁵⁴ Записки о Кокандском ханстве Хорунжего Потанина (1830 года) // Военный журн. 1831. № 4. С. 285.

⁵⁵ Мир Мухаммад Амин-и Бухари. Кўрсатилган асар. 49-бет.

joylashgan Zangiota bog‘iga borganlar». Bunday bayramlar mahalliy aholi tomonidan «sayil» deb atalgan⁵⁶.

Toshkentda Ramazon hayiti Shayxontohur bog‘i bilan birgalikda «Tuya bozorida» ham tantanali nishonlangan. Bu yerda «Ancha ko‘p sartlar, sart ayollari va bolalaridan iborat odamlar guruhi» yurib va chodirlar orasida o‘tirib, imkoniyatlariga ko‘ra turli narsalarni sotib olganlar va totib ko‘rganlar⁵⁷. Toshkentda shunday hayit bayramlaridan birini XIX asrning 30-yillarida kuzatgan Xorunjiy Potaninning ko‘rsatishicha, bunday bayramlarning birida shahar atroflaridagi tepaliklarda «chodirlar o‘rnatilgan bo‘lib, u yerda ko‘plab tomoshabinlar butun hafta davomida musiqa, o‘yin, kurash, chopish va tuyalar, echkilar, qo‘ylar va kakliklar olishuvini tomosha etib, xursandchilik qilishgan. Bu hayvonlarning egalari g‘alaba uchun sovg‘alar bilan taqdirlanganlar, ba’zan ular juda katta sovg‘alar olishgan»⁵⁸. Toshkent misolida kuzatilgan bu holat O‘rta Osiyoning boshqa shaharlari misolida ham tasdiqlanadi.

Shaharlarning aholining hordiq chiqaruvchi yirik markaz sifatidagi ahamiyati oshishida ularda shakllangan tozalikka rioya qilish, shahar ekologiyasini saqlash an‘analari muhim rol o‘ynagan. O‘rta Osiyoda shaharlardagi tozalikka alohida e’tibor berilgan. Shahar ko‘chalarini ozoda saqlashga harakat qilganlar. Ko‘chalar supurilib, suvlar sepilgan. Shahar ko‘chalaridan o‘tgan ariqlar ulardagi iqlimni yaxshilash, shahar ozodagarchiligiga xizmat qilgan. Ozodalikni saqlash va shaharlardagi aholining erkin harakat qilishi uchun ba’zi shaharlarda otda yurish mumkin bo‘lmagan. Buni ingliz ofitseri A.Bornsnинг XIX asrning birinchi choragiga oid quyidagi so‘zlari ham tasdiqlaydi. Uning ko‘rsatishicha, Buxoroda faqat shahar chekkasida otda yurish mumkin bo‘lganligi uchun shahar darvozalarigacha piyoda kelgan ingliz ofitseri va uning hamrohlari xizmatkorlariga otlarini shu yerga keltirishlarini buyurganlar⁵⁹.

⁵⁶ Хорошхин А.П. Увеселения сартов // Сборник статей, касающихся до Туркестанского края А.П. Хорошхина. СПб., 1876. С. 127.

⁵⁷ Ўша асар. 130-бет.

⁵⁸ Записки о Кокандском ханстве Хорунжего Потанина ... С. 287.

⁵⁹ Борнс А. Путешествие в Бухару: рассказ о плавании по Инду от моря с подарками Великобританского короля и отчет о путешествии из Индии в Кабул, Татарию и Персию, предпринятое ... в 1831, 1832 и 1833

Shaharlarda ozodagarchilikka e'tibor berilganligini ayrim ishlab chiqarish sohalarining shahar chetlarida joylashtirilishi madaniyatida ham kuzatish mumkin. Ishlab chiqarish jarayoni mobaynida turli hidlar bilan shahar havosini, shovqini bilan aholining tinchini buzuvchi va ishlab chiqarish jarayoni uchun suv bo'lishi talab etilgan hunarmandchilik sohalarini shaharlar atrofida joylashtirishga harakat qilganlar. Bunday hunarmandchilik sohalari jumlasiga terini oshlash, qog'oz ishlab chiqarish, bug'doy va boshqa donli o'simliklarni yanchiydigan tegirmonlar, kushxonalar va boshqalarni kiritish mumkin. Shohidlardan biri keltirgan ushbu ma'lumot bu o'rinda xarakterlidir: «butun Katta-Qo'rg'onga hayot beruvchi «Nuri-poy» daryosidan o'tishimizga to'g'ri keldi. Bizdan chap tomonda kushxona vazifasini o'tagan qon to'kilgan yerni ko'rdik», deb qayd qiladi⁶⁰.

Shaharliklarning hordiq chiqarishida bozorlarning o'rni beqiyos edi. Bu yerda shahar, qishloq, boshqa markazlar hamda xorijliklar o'zaro muloqotga kirishganlar. Bozorlarda to'plangan aholi mamlakat, shahar hayotiga oid yangiliklardan boxabar bo'lganlar, bu yerda amalga oshirilgan tadbirlarni kuzatish orqali ularning ijtimoiy tafakkuri takomillashib borgan. Bozorlarda hukmdorlarning farmonlari o'qib eshittirilar, ayrim hukmlar ijro etilar edi. Ko'p hollarda shariat va jamiyat qonunlarini buzgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan jazo chorralari bozorlarda hammaning ko'z o'ngida ijro etilardi. XVI asr o'rtalarida ingliz Antoni Jenkinson Buxoro haqida quyidagilarni qayd etadi: "agar suv yoki ot sutidan (qimiz) boshqa narsa ichgan kishini ko'rsalar, ... uni qattiq qamchinlab urgan holda bozorlardan olib o'tadilar"⁶¹. Bu hol O'rta Osiyo xonliklarining boshqa shaharlari misolida ham takrorlanadi.

Bozorlarda aholi madaniyat yutuqlaridan ham bahramand bo'lganlar. Bu yerda shoirlarning she'rlari o'qib eshittirilar edi. Shaharlardagi bozorlarda kitob savdosи keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular ham o'zlarining maxsus bozorlariga ega edi. Toshkentdagи "Sahhoflar bozori", Buxorodagi "Qog'oz bozori" shular

годах лейтенантом Ост-индской компанейской службы Александром Борнсом. М.: Университ. тип. 1848 – 1849. Ч. II. С. 447.

⁶⁰ Каразин Н. Рахмединак, бек заадинский // Туркестанский сборник. Т. 54. С. 208.

⁶¹ Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию 1558 – 1560 гг.//Английские путешественники в Московском государстве в XVI в./Пер. с англ. Готье Ю.В. М., 1938. С. 182.

jumlasidandir⁶². Buxorodagi “Qog‘oz bozori” haqida yozar ekan, XIX asrning 30-yillarida P.I. Demezon, uning Registondagi katta hovuz yonida joylashganini qayd etib: “Bozori qog‘oz (Qog‘oz bozori) shaharda qog‘oz, (qamishdan yasalgan) qalamlar va ba’zan eski kitoblarni topish mumkin bo‘lgan yagona joy” sifatida ta’riflaydi⁶³. Mir Izzat Ulla (1813) ham Buxorodagi Chorsu bozorining to‘rt tomonidan biri berkitilgan bo‘lib, unda kitob savdosi bilan shug‘ullanuvchilar o‘tirishini qayd etib o‘tadi⁶⁴. A. Vamberi esa Buxorodagi kitob bozorini eslatib, uning 22 do‘kondan iborat ekanligini qayd etadi⁶⁵. Kitob savdosi bilan mashg‘ul do‘konlar Qo‘qon bozorlarida ham mavjud edi⁶⁶. Bu do‘konlardan aholining ilmga tashna vakillari turli xarakterdagи kitoblarni sotib olishlari mumkin edi. Ayrim hollarda kitob do‘konlari kutubxona vazifasini ham o‘tagan.

Bozorlarda turli tomoshalar ham ko‘rsatilgan. Buni tasdiqlovchi misol sifatida Shahrисabz Chorsusida (XIX asr) bo‘lib o‘tgan tomosha haqidagi ma'lumot diqqatga sazovordir: “Chorsuda kunduzi savdo amalga oshiriladi, kechqurun esa bu yerda tomoshalar tashkil qilinib, bachchalar o‘yinga tushadi va h.k. Shahar bozori Chorsudagi kechqurungi tomoshalar juda jonli edi”. Bozor maydoni va Oqsaroy yaqinida esa arqon tortilib, dorbozlar o‘z mahoratlarini namoyish etganlar»⁶⁷.

Odatda, bozorlardagi savdo-sotiқ jarayonlari faqat kunduz kunlari amalga oshirilgan. Shariat qonunlariga ko‘ra, kechqurun savdo qilish maqsadga muvofiq hisoblanmagan. Bunda ayrim nuqtai nazarlar inobatga olingan bo‘lib, ular birinchidan – kechqurun savdoni amalga oshira olmaydigan savdogarlar bilan kechqurun savdo qiluvchilar o‘rtasida raqobatni keltirib chiqarmaslikni, ikkinchidan – sotiladigan mol turli xil to‘sилarsiz o‘lchanadigan va ko‘zdan

⁶² Малицкий Н.Г. Ташкентские махалля и маузе// В.В. Бартольду – туркестанские друзья, ученики и почитатели. Ташкент, 1926. С. 13; Записки о Бухарском ханстве (Отчеты П.И. Демезона и И.В. Виткевича). М.: Наука, 1983. С. 57.

⁶³ Записки о Бухарском ханстве. С. 57.

⁶⁴ Путешествие Мир Иззет Уллы от границы Коқандского ханства до города Самарканда //Тр. САГУ. Нов. сер. Вып. ХС. Ист. Кн. 14. Сер. История. Ташкент, 1957. С. 201.

⁶⁵ Вамбери А. Очерки Средней Азии. С. 150.

⁶⁶ Наливкин В., Наливкина М. Очерк быта женщин оседлого туземного населения Ферганы. Казань, 1886. С. 4.

⁶⁷ Маев Н.А. Очерки Бухарского ханства. Ташкент, 1875. С. 38.

kechiriladigan shart-sharoitlarni talab qilgan⁶⁸. Oqibatda kechqurungi savdo maqsadga muvofiq deb topilmagan. Lekin ba'zi hollarda shaharlar bozorlarida savdo tunda ham amalga oshirilgan va bu hol ham aholining hordig'ida muhim o'rinni tutgan. Bunday xususiy hollar, odatda, ayrim hukmdorlar hukmi bilan amalga oshirilgan. Buning yorqin misoli sifatida XVIII asr muallifi Mir Muhammad Amin Buxoriyning Ubaydullaxonning quyidagi buyrug'i haqidagi xabari diqqatga sazovordir. Uning yozishicha, "Dunyo bo'ysunadigan... (oliv) farmon quyidagilarni ma'lum qildi: "shaharning barcha hunarmandlari va ustalari majburiy tarzda o'z do'konlarini bezatsinlar, kun va tunni bir xil hisoblasinlar va (uzluksiz) savdoni amalga oshirsinlar"⁶⁹.

Tungi savdo ba'zi bayramlar, hayit kunlari va ro'za paytida ham amalga oshirilgan. "Tarixi jadidayi Toshkand" asarining muallifi Muhammad Solih (XIX asr) Toshkent haqida yozar ekan, "Bozorning do'kon rastalari Chorsudagi qandolatpazlik do'konigacha davom etadi. Ramazon oyida bu yerda kechasi ham bozor bo'ladi, xalq savdo-sotiq, har xil o'yin-kulgu qiladi", deb qayd etadi⁷⁰.

Qayd etilgan va XVI – XIX asrning birinchi yarmiga oid manbalarda saqlanib qolgan juda oz sonli ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, aholining bo'sh vaqtini to'g'ri taqsimlashi va hordiq chiqarishida shaharlar muhim o'rinni tutganlar. Ularda shakllangan shahar madaniyati va an'analar aholi hordig'ini tashkil etishda muhim omil vazifasini o'tagan.

Yurtimiz ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida mahallaning o'rni katta bo'lib, u tadbirlarni hayotga joriy etish, odamlarga yetkazish, ularni boshqarish, uyushtirishda o'zaro hamkorlikni tashkil etishda alohida o'rinni tutadi. Hozirda mahalla – jamiyat hayotining ko'zgusi, uning demokratlashuv darajasini ko'rsatuvchi o'ziga xos mezon sifatida e'tibor qozonmoqda. Bugungi kunda yurtimizda Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish instituti – mahalla faoliyatining

⁶⁸ Наливкин В. и Наливкина М. Очерк быта женщин. С. 6.

⁶⁹ Мир Мухаммад Амин-и Бухари. Убайдулланаме. С. 25.

⁷⁰ Каранг: Ўринбоев А., Бўриев О. Тошкент Мухаммад Солих тавсифида. Т.: Фан, 1983. 40-бет; Мухаммаджонов А. Қадимги Тошкент. Т.: Фан, 1988. 59-бет.

tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko‘lamini kengaytirish asosida yoshlarimiz tafakkurining rivojiga e’tibor qaratishga jalb etish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Davlatimiz tomonidan ijtimoiy institut sifatida mahalla obodonchiligiga, uning tarbiyaviy maskan sifatidagi rivojiga e’tibor qaratalishi milliy mentalitetimizda mahalla tizimining g‘oyat muhimligini ko‘rsatdi. Yurtimiz siyosatida mahallaga e’tibor o‘z-o‘zini boshqaruvchi mahalla tizimida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jarayonlarning intensivlashishida namoyon bo‘ldi⁷¹.

Bugun mahallalarda ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash borasida ham ko‘plab ijobiy ishlar amalga oshirilmoqdaki, bular yoshlar tafakkuri rivojida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Mahallalarda yoshlarni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish maqsadida, mamlakatimiz mustaqilligi va hayotimizga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan jirkanch harakatlarga qarshi targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda. Mahallalarda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish, yoshlarni turli yot diniy oqimlar ta’siridan himoyalash, mahalla fuqarolar yig‘inlarida barqaror ma’naviy-axloqiy muhitni qaror toptirish, aholi, ayniqsa, yoshlar ong-shuuriga sog‘lom turmush tarzini singdirish bugungi globallashuv davrida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mahallalarda milliy qadriyat va urf-odatlarning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni, yoshlarda Vatanparvarlik, ona-Vatanga mehr-muhabbat va sadoqatni kuchaytirish maqsadida muntazam turli tadbirlar o‘tkazilmoqda. Bugun mahalla aniq yo‘naltirilgan asosda aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylanmoqdaki, ushbu jihatlar yoshlar tafakkurining shakllanishida ham muhim rol o‘ynamoqda.

Yurtimizda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurish, inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari eng oliv qadriyat hisoblanadigan fuqarolik jamiyatini shakllantirish, shuningdek yoshlar dunyoqarashini rivojlantirishda mahallaninig o‘rni beqiyosdir. Bugun kunda fuqarolik jamiyatini barpo etishda mahalla tizimiga barcha davlat, nodavlat va jamoat tashkilotlari jalb etilgani bu borada amalga oshirilayotgan chora-

⁷¹ Мадаева Ш.О. Миллий менталитет ва демократик тафаккур. – Т.: Фалсафа хукук институти нашриёти, 2007. – Б. 92.

tadbirlarning izchilligini ta'minlayotir. Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganlaridek, «... odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati, siyosiy faolligi yuksalib borgani sari davlat vazifalarini nodavlat tuzilmalar va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o‘tkazib borish zarur. Bu borada o‘zini-o‘zi boshqaradigan idoralarning, mahallalarning nufuzini va mavqyeini oshirish, ularga ko‘proq huquqlar berish katta ahamiyat kasb etadi»⁷².

Yurtboshimiz tomonidan 2010 yil 12 noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisida ilgari surilgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi»da: «Fuqarolik institatlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda. Fuqarolarning o‘z salohiyatlarini ro‘yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko‘maklashmoqda»⁷³, deya alohida ta’kidlandi.

Xulosa qilganda, yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan konsepsiya mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining, xususan, mahallalar rivojining yangi bosqichini boshlab berish, milliy davlatchiligidan taraqqiyotida tarixiy burilish yasash bilan birga yoshlarimizda yurt ravnaqi va farovonligiga daxldorlik hissini kuchaytiradi hamda ularning siyosiy-ijtimoiy faolligini oshiradi. Bu esa fuqarolik jamiyatining eng muhim belgisi bo‘lib, mahalla yoshlarining siyosiy-ijtimoiy faolligi hamda ular tafakkurida ijobiy qirralar rivojida yetakchi o‘ringa ega bo‘layotganligidan dalolatdir.

Respublikaning muhim ma’muriy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri Namangan shahrining tashkil topishi haqida turli manbalarda har xil ma'lumotlar

⁷² Халқ сўзи газетаси. 2001 йил, 20 июнь.

⁷³ Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривоҷлантириш концепсияси. Президенти Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий мажлиси Конунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси. Халқ иродаси газетаси. 2010 йил 24 ноябрь.

mavjud. Taniqli tarixchi olim Yo‘lchi Qosimovning ma'lumotlariga ko‘ra, Namangan shahri XVII asrdan boshlab Axsi atrofidagi qishloq sifatida tilga olinadi. V. P. Nalivkinning so‘zlariga qaraganda, Namangan xijriy 1053 (1643 milodiy) yillarga doir vaqf xujjatlarida qishloq sifatida, Mahmud ibn Valining yozishicha esa, 1758 yillarga doir xujjatlarda viloyat sifatida tilga olinadi⁷⁴. Bir qator yangi adabiyotlarda yoritilishicha, Namangan shahri tarixi ancha olisroqqa borib taqaladi. Namangan qishloq sifatida XIV asr oxiriga tegishli ekanligi qayd etiladi. Bobur o‘zining “Boburnoma”sida Namanganni qishloq sifatida eslatib o‘tgan. Tarixchilarining ma'lumotlariga ko‘ra, bu yerga 1582 yilda asir olingan forslar keltirib joylashtirilgan. Bu hudud 1610 yildan shahar maqomini olgan.

XVI–XIX asrlarda Namangan vohasida yer va suv ta'minoti masalalarini yoritishga yordam beradigan yagona xujjat O‘zSSR FA Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan “Yorliqlar to‘plami”dir. Bu yorliqlar Farg‘onaning, shu jumladan Axsi(Namangan) viloyatida yer egaligi, feodal majburiyatları va suv taqsimoti haqidagi 146 ta xujjatni o‘z ichiga oladi. Namangan vohasining irrigatsiyasi tarixiga oid ma'lumotlar nihoyatda kamligi tufayli sug‘orma dehqonchilikning paydo bo‘lishidan tortib, toki, XVIII asrgacha – ko‘chmanchilarining o‘troqlashishigacha bo‘lgan davr irrigatsiyasi tarixini bayon etish g‘oyat mushkuldir.

Kosonsoydan qadimgi Axsikentga suv olib kelingani, buloqlar boshini biriktirib, sug‘orish maqsadlariga yo‘naltirilgani, charxpalaklar, chig‘irlar yuz yillardan beri ishlatilib kelgani ma'lum. So‘nggi ikki yuz yil ichida suv ta'minotida katta o‘zgarish yasagan yirik irrigatsiya inshooti Yangiariq kanalidir. Bugun Namangan shahridan o‘tgan kanalnigina Yangiariq deb tushuniladi. Aslida esa Shimoliy Farg‘ona kanalining Chortoqsoygacha bo‘lgan qismi ham Yangiariq edi. Yangiariqning qachon ishga tushirilganligi haqida hali tarixchilar o‘rtasida bahsli munozaralar mavjud. Tarixchi Yo‘lchi Qosimovning “Namangan vohasining sug‘orilish tarixidan” nomli monografiyasida Yangiariq kanalining ishga tushirilgan yili turlicha e’tirof etiladi. Muallif bu xususda ma'lumotlar turlicha

⁷⁴ Қосимов Й. Наманган воҳасининг суғорилиш тарихидан. – Т.: Фан, 1988. – Б. 24.

ekanini e'tirof etib, har xil manbalarda 1800–1803, 1803–1811, hijriy 1235 yoki milodiy 1819 yillar ta'kidlanishini qayd qiladi. Yo'lchi Qosimovning ko'rsatishicha Yangiariqning yana bir nomi Mutagan arig'i bo'lib, uning qurib bitkazilgan sanasi 1803 yil degan xulosaga kelgan⁷⁵.

O. Abdullaevning ma'lumotlariga ko'ra, Yangiariq kanali 1819 yili Norin daryosidan Namangan shahriga qadar qazilgan va 1922 yilda qurib bitkazilgan⁷⁶. Yangiariq kanali, dastlab, Chegaraxona, Qizil Rabot, Uychi, Chortoq, Kasotepa, Namangan shahrining shimoliy qismi va Xonobod yerlarini suv bilan ta'minlagan. Kanalning Norin daryosidan to Namangan shahrigacha bo'lgan qismida 47–50 tegirmon suv oqqan va undan 55 ariq chiqarilib, 40 ming desyatina yangi yer o'zlashtirilgan⁷⁷. Birgina Namangan shahrining o'zida kanaldan 21 ta shahobcha chiqarilib, ular orqali shahar ichkarisi va shahar atrofidagi qishloqlarga qarashli yerlar sug'orilgan.

1819 yilda Umarxon farmoni bilan Yangiariq kanali yana uzaytirilib, uning uzunligi 120 chaqirimga yetkazildi. Unda har sekundda 5–6 kub sarjin suv oqib, asosan Namanganning janubiy qismi va uning atrofidagi yerlar sug'orilgan. Mazkur kanalning uzaytirilishi bilan Namangan shahrining janubiy qismida suv ta'minoti yaxshilandi va yangi yerlar o'zlashtirildi. Shahar va uning atrofini to'la suv bilan ta'minlash uchun 337–340 tegirmon suv talab etilgan. Ammo mazkur hudud 276 tegirmon suv bilan ta'minlangan xolos. 1819–1821 yillarda Umarxon buyrug'i bilan yangi kanal qazilgan. Bu kanal Namangan shahri va uning atrofidagi 23 qishloqni ta'minlovchi Xonariq kanali edi.

Yana bir muhim ahamiyatga ega bo'lgan suv inshooti Rozenbax arig'i bo'lib, bu ariq O'rta Osiyo chor Rossiyasi tomonidan bosib olinganidan keyin qurilgan eng yirik ariq bo'lgan. Mazkur ariq XIX asrning 80- yillarida bunyod etilgan va suvni Yangiariqdan olgan. Uning uzunligi taxminan 17 km. bo'lib, Chortoqsoydan boshlangan va Aksi, Shahand qishloqlarigacha oqib borgan.

⁷⁵ Юқоридаги асар. – Б. 32.

⁷⁶ Абдуллаев О. Наманган вилояти. – Н., 1995. – Б. 45

⁷⁷ Каранг: Косимов Й. Наманган воҳасининг суғорилиш тарихидан. – Т.: Фан, 1988. – Б. 33.

1940 yillarga kelib bir qancha yangi yerkarning o‘zlashtirilishi bilan Yangiariq ham, undan suv oluvchi Rozenbax kanali ham kerakli suvni bera olmay qoldi. Shundan so‘ng yangi suv inshooti – Shimoliy Farg‘ona kanali qurilishiga qo‘l urildi. Ushbu kanal qurilishi 1940 yilning 18 fevralida boshlangan va o‘sha yilning 23 iyul kunida suv ochilgan⁷⁸. Shimoliy Farg‘ona kanalining umumiy uzunligi 160 km⁷⁹ bo‘lib, kanalning boshlanishidagi 60 km.dan ziyodroq masofaga Yangiariq va Rozenbax kanallari asos bo‘lgan. Kanalni qazishda 69,5 ming ishchi, 600 dan ortiq muhandis texnik qatnashib, 5,9 million kubometr tuproq ishlari bajarilgan. Kanal 1940 yil yozida ishga tushirilishiga qaramay uning qirg‘og‘i yuvilib ketaverган. 1960 yillarga kelib kanal to‘la mustahkamlangan. Shimoliy Farg‘ona kanalining bir bo‘lagini tashkil etgan Yangiariq 150 yilda mukammal qiyofaga ega bo‘ldi. 1970–1978 yillari mamlakatimizda yirik irrigatsiya inshootlaridan hisoblanuvchi Katta Namangan kanali qurildi. Uning birinchi navbatiga 1974 yilda, ikkinchi navbatiga 1978 yilda suv ochilgan. Bu kanalning ishga tushirilishi bilan Podshoota va Chodak soylari suviga bo‘lgan ehtiyoj birmuncha kamaydi⁸⁰.

Yuqoridagi kanallarning birmuncha mustahkamlanishiga qaramay XIX asrning 70–90 yillarida Chust va Namangan uezdlarida bir necha marta suv toshqinlari bo‘lib turgan. Jumladan, 1877 yil aprel-may oylarida Podshootasoy toshqini natijasida Yangiariq suvidan shaharda 216 uy katta zarar ko‘rgan, 18 tegrimon buzilgan, 12 ta tuproq to‘g‘on ishdan chiqqan. Ko‘rilgan zararning qimmati 46 ming so‘mni tashkil etgan. Yangiariqning 40 joyidan suv toshib, 36 kishi halok bo‘lgan. Toshqin bo‘lgan joylarni tuzatish uchun 2500 arava va minglab ishchi kuchi safarbar etilgan. Bu kabi sellar Chust va Namangan uezdlarida 1881, 1883, 1887, 1891, 1897 yillarda ham sodir bo‘lgan.

1918 yil 17 maydagi “Turkistondagi sug‘orish ishlariiga 50 million so‘m ajratish va bu ishlarni tashkil qilish to‘g‘risida”gi, RSFSR Xalq Komissarlari

³³ Наманган ҳакикати. 1980 йил 12 феврал. – Б. 2

⁴⁴ Рузбаев Т., Набиев Х., Артыков Я. Наманганская область. – Т.: Путеводитель, 1979. – С. 19.

¹¹ Умматов Р. Оби равон. – Н., 2007. – Б. 8.

² Косимов Й. Наманган воҳасининг суғорилиш тарихидан. – Т.: Фан, 1988. – Б. 53.

Sovetining 1918 yil 9 maydagи “Davlat inshootlari komiteti to‘g‘risida”gi hamda Mehnat va Mudofaa Sovetining 1921 yil 29 apreldagi Dekretlarini qabul qilinishi bilan irrigatsiya va suv ta‘minoti ancha yaxshilandi³. Shu yillari communal xizmat ko‘rsatishga ham e‘tibor qaratilgan. Namangan viloyatida communal xo‘jalik 1924 yildan rivojlangan. Shu yil Namangan shahar Mahalliy xo‘jalik bo‘limi tasarrufida 9153 bino bo‘lib, ularni suv ta‘minotiga alohida e‘tibor berilgan. 1947 yilda Namangan shahrini ichimlik suvi bilan ta‘minlash to‘g‘risidagi Respublika “Uzdavloyiha” loyihalash instituti tomonidan tayyorlangan reja loyihasi e‘lon qilindi. Shu yillardan boshlab shaharni ichimlik suvi bilan ta‘minlash yo‘lga qo‘yilgan⁸¹. Namangan shahrida 1970 yildan boshlab communal xo‘jalik sohalari ayniqsa, aholini ichimlik suvi bilan ta‘minlash, kanalizatsiya xizmati, issiq suv ta‘minoti va isitish ishlari rivojlandi. Shahar hududida turar joylarni ichimlik suvi bilan 1985 yilda – 91,3 %, 1990 yilda – 95,0 %, 1991 yilda – 96,6 %, kanalizatsiya bilan 1985 yilda – 78,7 %, 1990 yilda – 88,3 %, 1991 yilda – 90,0 %, markaziy isitish bilan 1985 yilda – 77,4 %, 1990 yilda – 89,6 %, 1991 yilda 90,0 %, issiq suv bilan 1985 yilda – 68,6 %, 1990 yilda – 70,1 % va 1991 yilda – 72,0 % ta‘minlandi⁸².

1969 yilda Namangan shahar vodoprovod tarmog‘i negizida O‘zbekiston Respublikasi communal xo‘jaligi Vazirligi “Uzvodokanal” ishlab chiqarish birlashmasining Namangan viloyat “Vodokanal” birlashmasi tashkil etildi.

Respublika vodoprovod va kanalizatsiyadan foydalanishni rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Vazirlar Kengashining 1978 yil 24 iyuldagи 589-R farmoyishi, O‘zbekiston communal xo‘jaligi vazirligining 1978 yil 2 avgustdagи 366- sonli buyrug‘i, O‘zbekiston Respublikasi “Uzvodokanal” ishlab chiqarish bosh birlashmasining 1978 yil 10 avgustdagи 399- sonli buyrug‘iga asosan “Uzvodokanal” respublika tresti 1978 yil 1 avgustdan “Uzvodokanal” ishlab chiqarish boshqarmasiga aylantirildi. Shunga asosan 1978 yil 1 avgustdan Namangan viloyati “Vodokanal” boshqarmasi ishlab chiqarish boshqarmasiga

³³ НВДА. Р 328-фонд, 1- рўйхат, 20- иш, 7- варак.

⁴⁴ Абдуллаев О. Наманган вилояти. – Н., 1995. – Б. 129.

aylantirildi. Mazkur boshqarma 1991 yil iyun oyidan viloyat ichimlik va chiqindi suvlarni ishlab chiqarish boshqarmasiga, 1993 yil mart oyidan esa viloyat “Suvoqava” ishlab chiqarish boshqarmasiga⁸³ va 2008 yil fevral oyidan Namangan viloyat Davlat Suvoqava korxonasiiga aylantirildi⁸⁴.

Namangan shahar Oqava suv tozalash inshooti 1960 yilda loyiha xujjatlari “Uzkommunloyiha” instituti tomonidan ishlab chiqilgan kuni 1- navbat 1965 yilda 38 ming m³ sut. quvvat bilan ishga tushgan Inshootni 2-navbat 1984 yilda 73 ming m³ sut. quvvatga yetkazildi va uni tarkibiga biologik tozalash inshootlari kiritildi. 1987 yilda esa inshootning 3-navbat 100 ming m³ sut. quvvatga yetkazilgan.

Namangan shahri iste'molchilarini asosiy ichimlik suv manbai “Jiydakapa” suv olish inshootidan 45 ta yerosti quvurlari yordamida kunlik quvvati 160,0 ming m³, “Qizil Ravot” suv olish inshootini ochiq manbasidan kunlik quvvati 90,0 ming m³ ichimlik suvlari olinib “Bosh inshoot”, “Paxtalikko'l”, “Oromgoh”, “Mingchinor”, “G'irvonsov”, “Ququmboy” va “Nurobod” qayta suvni haydar berish inshootlari yordamida ichimlik suvi bilan ta'minlanadi. “Qizil Ravot” suv olish inshooti hozirgi kunga kelib boshqarma tizimidan ajralib chiqib, viloyat “Suvoqava” boshqarmasiga ichimlik suvi sotish bilan shug'ullanmoqda.

Namangan shahri aholisini ichimlik va oqava suvi bilan ta'minlanishi:⁸⁵

	2004 yil	2005 yil	2006 yil	2007 yil	2008 yil
Ichimlik suv	95,7 %	96 %	98 %	97 %	97 %
Oqava suv	25,7 %	27,2 %	27,2 %	27,2 %	27,2 %

Jahonning ko‘pgina janubiy qutb mamlakatlarida suv tanqisligi muammosi mavjud bo‘lib, hozirgi kunda bu global muammoga aylangan. Markaziy Osiyoda hozirda bunday suv tanqisligi kuzatilmasa-da, bu masalada ayrim muammoli masalalar yuzaga kelmoqda. Bu Qirg‘iziston va Tojikiston hududlarida qurilayotgan Qambarota va Rogun GES larining qurilishi bilan bog‘liqdir. Mazkur davlatlar o‘z manfaatlarini ya’ni asrlar davomida tabiiy holda oqib kelgan suv

⁸³ НВДА. Р 328- фонд, 1- рўйхат, 20- иш, 7- варак.

⁸⁴ Наманган вилоят “Сувокава” ишлаб чиқариш башқармасининг расмий маълумоти.

⁸⁵ Наманган вилоят “Сувокава” ишлаб чиқариш башқармасининг расмий маълумоти.

manbalarini sotishni ko‘zda tutib, bu yirik suv inshootlarini qurmoqdalar. Holbuki buni Markaziy Osiyo ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jiddiy ta'sir etishi, mintaqaga ekosistemasiga katta xavf tug‘dirishi, Orol muammosini yanada og‘irlashishi va bu bilan katta mojaroviy muammolar yuzaga kelishini tahlil etib ko‘rishlari lozim. Qolaversa, mintaqada bunday mojarolarning yuzaga kelishi turli kuchli siyosiy markazlarning aralashuviga va bu bilan salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bir necha bor ta'kidlaganidek, bu masala transchegaraviy suv oqimlaridan foydalanish to‘g‘risidagi konvensiya (1992 yil)ga, Kemalar yurmaydigan xalqaro suv omborlaridan foydalanish huquqi to‘g‘risidagi konvensiya(1997 yil)ga hamda xalqaro huquq normalari va nufuzli xalqaro ekspertlar xulosalariga muvofiq hal etilishi lozim.

YuNeSKO bosh direktori K. Matsura ham bu masalaga o‘z munosabatini bildirgan va mazkur masalani hal etishdagi O‘zbekistonning yondashuvini qo‘llab-quvvatlagan.

Bu kabi gidrotexnik inshootlarning qurilishi va bu masalada olib borilgan noto‘g‘ri siyosat Markaziy Osiyo, shu jumladan Namangan vohasida ekologik muvozanatining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Jamiyat tarkib topibdiki, tarbiya jarayoni ham davom etmoqda va bundan keyin ham davom etadi. Hyech bir jamiyat tarbiya jarayonidan, hyech bir inson tarbiya faoliyatidan tashqarida bo‘la olmaydi. Chunki ta‘lim tarbiya jamiyat yashashining asosiy sharti, taraqiyotining muhim omilidir.

Hali yozuv kashf qilinmasdan ilgari ham har bir xalq, elat yoki qabilalarning o‘ziga xos tarbiya usullari bo‘lgan va yosh avlod xalq og‘zaki ijodi, mehnat jarayoni, urf-odat va marosimlar, o‘yinlar orqali tarbiyalab borilgan.

O‘zbek xalqining ajdodlari ham asrlar davomida o‘ziga xos tarbiya tizimini ishlab chiqdi va o‘z farzandlarini mehnatkash, odob-ahloqli, mehribon va boshqa shu kabi ijobiy xislatlarga ega inson sifatida tarbiyalab keldi.

Ma'lumki, qadimgi yunon faylasuflari Platon va Arastular bola tarbiyasini jamiyat o'z ixtiyoriga olishi, tarbiya jarayonidagi barcha zarur ishlarni davlat bajarishi lozim, degan g'oyani ilgari surgan edilar⁸⁶.

Bu g'oya fransuz utopik(xayoliy) sotsialistlari Sen-Simon, Sharl Fure va David Rikardolarning asarlarida keyinchalik rivojlantirildi. Ular o'zlarining fikrlarini farzand tarbiyasi jamiyat manfaatlari bilan bog'liq deb, isbotlamoqchi bo'lganlar. Shunga ko'ra bola tarbiyasi bilan asosan davlat shug'ullanishi kerak, degan g'oyani ilgari surganlar. Sharq mutafakkirlari qarashlarida esa aksincha, oilaviy tarbiyaga ko'proq urg'u beriladi. Jumladan, buyuk alloma Abu Ali ibn Sino o'z qarashlarida farzand tarbiyasi bilan avvalo oila, ota-onas shug'ullanishi kerak, deydi.

Islom ta'limotida ham oila va unda bola tarbiyasiga munosabat masalasi alohida o'rin egallaydi. Farzand tarbiyasi, uni yetuk inson qilib tarbiyalash islom ta'limotining muhim shartlaridan biri bo'lib, ota-onaning muqaddas vazifasi hisoblanadi va hayotning mazmuni, yashash ma'nosи, muammosi bola tarbiyasi bilan bog'langan holda o'rtaga tashlanadi. Darxaqiqat, inson tarbiyasida xal qiluvchi bosqich-oila tarbiyasi bo'lib, bu Beruniy, Ibn Sino, Navoiy kabi allomalardan tortib, toki Behbudiy, Fitrat kabi millat yetakchilarining qarashlarida o'z ifodasini topgan.

Rus faylasufi V. G. Belinskiy ham oila muhitini xalq pedagogikasining birinchi va bevosita manabasi, deb hisoblagan⁸⁷. Agar oiladagi muhit tarbiyalovchi xarakterga ega bo'lmasa, bu jamiyat uchun ham katta zarardir. Mashhur nemis psixologi va psixiatri Zigmund Freyd o'z tadqiqotlarida jamiyatda sodir bo'layotgan jinoyatlarning aksariyati bolaligida ota-onasi bilan o'zaro yaxshi munosabatda bo'limgan nosog'lom psixologik muhit xukm surgan oilalarda tarbiyalangan, ota-onas mehriga qonmay o'sgan shaxslar tomonidan sodir etilishini asoslab bergen⁸⁸.

⁸⁶ Мунавваров А.К. Оила педагогикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – Б. 43.

⁸⁷ Измайлова А.Э. Народная педагогика: педагогические воззрения народов Средней Азии и Казахстана. – М.: “Педагогика”, 1991. – С. 6.

⁸⁸ Фрейд З. Анализ фобии пятилетнего мальчика // Психоанализ детской сексуальности. Фрейд З. И другие. Пер. С нем. СПб.: Союз, 1997. – С. 112–116.

Tadqiqotchilarning fikricha, tarbiyada milliylik qancha ko‘p saqlanib qolsa, o‘sha millatning ma’naviyati boy va madaniyati kuchli bo‘lar ekan. Shuning uchun ham, ko‘p ming yillik tarixga ega milliy tarbiya an'analariga tayanmay turib, zamonaviy ta’lim tarbiya ishlarini yo‘lga qo‘yib bo‘lmaydi. Xalqimizning an'anaviy tarbiyaga oid tajribalarini o‘rganish maqsadida hozirgi kunimizga qadar milliy an'analarimiz nisbatan yaxshi saqlanib qolgan Namangan shahri aholisi orasida tadqiqotlar olib bordik. Tadqiqot ob'ekti sifatida asosan, “Xasti Xizr” va “Haqiqat” mahallalari tanlandi.

O‘zlarining hushmuomala, sermulozamat, kamtar va kamsuqumligi bilan ajralib turuvchi Namangan xalqi o‘ziga xos etnopsixologik qiyofaga ega. Ularga xos ruhiy – emotsiyal xolat, bu qalbdagi g‘alayonlarni, jahl, g‘azab va nafratni ichga yuta olish, sirtga chiqarmaslikdir. Qo‘rs-qo‘pollik, oshkora gerdayish, yurakdagi gaplarni shartta yuzga aytish – “betga aytganning zahri yo‘q” qabilida ish tutish Namangan shahar aholisi uchun yet xususiyat.

Shuning uchun hatto raqibga aytishi kerak bo‘lgan gaplar ham so‘z o‘yini, piching orqali ifoda etiladi. Balki, qashqadaryolik yoki xorazmliklar uchun nafrati yog‘ilib turgan kishiga qarab, tabassum qilish juda og‘ir, hatto chidab bo‘lmaydigan xolat hisoblansada, Namangan shahri xalqi uchun bu qabul qilingan va juda chuqur singdirilgan odatdir. Bunday hulq-atvor madaniyati bolalarga hali go‘dakligidanoq ota-onalari va boshqa yaqinlari orqali hushmomalalik, shirinso‘zlik bilan singdirilib boriladi.

Namangan shahri o‘zbeklarining bunday o‘ziga xos muomala madaniyatiga ega bo‘lib kelishiga ikki hil omil sabab bo‘lgan. Birinchidan, aholining aksariyati qadimdan savdogarlik va hunarmandlik bilan shug‘ullanib kelgan. Savdoda esa shirin so‘z va yaxshi mulozamat ko‘rsatish muvaffaqiyat garovidir. Aynan shu narsa hunarmandlar uchun ham o‘z molini sotishda qo‘l keladi.

Ikkinchi tomondan, islom e’tiqodining ahloqiy qoidalariga ko‘ra kishining dilini og‘ritish gunoh sanaladi. Namangan shahri aholisi esa islom diniga qattiq e’tiqod qiluvchi xalq sifatida islom etiketini yaxshi saqlab qolgan. Shuning uchun ham shahar mahallalaridagi hohlagan bir hovliga kirsangiz, an'analar ruhini, islom

dini taftini sezasiz. Aynan Namangan shahri deb bekorga urg‘u berayotganimiz yo‘q, sababi, shahar xalqining muomala madaniyati, ijtimoiy va oilaviy munosabatlar tizimi, udum va odatlari, kiyinish va ovqatlanish tarzi viloyatdagi boshqa xududda yashovchi o‘zbeklarnikidan anchagina farq qiladi. Masalan, respublikamizning juda ko‘p xududlarida, shu jumladan Namangan viloyatining boshqa tumanlarida ham ruslar bilan birga kirib kelgan, anchagina ildiz otgan bir illat bor. Bu aziz sanalgan mehmon kelganda dasturxonga albatta spirtli ichimlik qo‘yilishidir. Lekin, shu illat shahar mahallalarida uchramaydi, aksincha, ichib mast bo‘lib yurganlarga nafrat bilan qaraladi.

Namangan shahri mahallalarida o‘tkazgan tadqiqotlarimizdan shu narsa ma'lum bo‘ldiki, islomiy ahloq-odob qoidalari bolalarga dastlab, asosan oilaviy tarbiya orqali singdiriladi, so‘ngra mahalladagi ijtimoiy muhit va o‘zaro munosabatlarda mustahkamlanadi.

Ma'lumki o‘zbeklarda oila – bu faqat ota-onva farzandlardangina iborat bo‘lmay, balki, bobo, buvi, tog‘a, xola, amaki, amma va boshqa qarindoshlarni ham o‘z ichiga oluvchi teran tushunchadir. Aksariyat holarda o‘g‘illardan biri albatta ota-onva bilan birga yashaydi, boshqa o‘g‘illar ham toki alohida uy-joy qilib chiqib ketgunga qadar ma'lum muddat ota-onalari bilan birga yashaydilar. Shu muddat davomida yosh oila uy-ro‘zg‘or yuritish, farzandlarni parvarishlash va tarbiyalash tajribalarini o‘zlashtiradi. Ota-onalar bola tarbiyasida o‘z farzandlariga ko‘maklashadilar. Ayni paytda bobo va buvilarning nevaralari bilan muloqoti katta ahamiyatga ega, chunki ular o‘z bilganlarini yosh avlodga o‘rgatib boradilar va shu tariqa an'analar bardavomligi saqlanadi.

O‘tkazilgan so‘rovnomalar natijasiga ko‘ra, so‘ralganlarning 90% i “Farzand tarbiyasida sizga kim yordam bergen?”, degan savolga “ota-onam” yoki “qaynona-qaynotam”, – deb javob variantini belgilaganlar. Mahallada namunali oila sanalgan ota-onalar bilan suhbat o‘tkazganimizda, ularning deyarli hammasi farzandlarini hyech qachon kaltaklamaganlarini va bolani yosh bosqichlariga qarab tarbiya usullarini ham o‘zgartirib borganlarini aytib o‘tdilar.

Pedagoglarning fikricha, pedagogik bilim o‘zi bir masala, bolaga ta’sir qila olish esa boshqa masala. Ko‘pincha oqilona fikr, intuitsiya, improvizatsiya* ilmdan ham kuchliroq bo‘ladi. Shuning uchun ham savodsiz yoki ilmiy bilim darajasi juda past ota-onalar farzandlarini tarbiyalashda oliv pedagogik ma'lumotlilarga nisbatan oqilona ish yuritganlari ko‘p qayd qilinadi⁸⁹.

Bu yerda gap tarbiya an'analarining vorisligi va tajriba haqida ketayapti. Biz suhbat o‘tkazgan ota-onalarning deyarli barchasi bola tarbiyalashni o‘z oilasidan o‘rgangan, ota-onasidan ko‘rganlari va eshitganlariga amal qilgan.

Malumki, pedagogikada ham o‘smirlilik davri murakkab davr sifatida e’tirof etiladi. Suhbat jarayonida ota-onalarning ko‘pchiligi ham o‘smirlilik – ya’ni “rastalik” davri tarbiyasi mashaqqatli ekanini uqtirib o‘tishdi. Xalq pedagogikasi bu davrda ayniqsa o‘g‘il bolalar bilan ehtiyot bo‘lib munosabatda bo‘lishni ta’kidlaydi, boshqachasiga aytganda “bu davrda yetti o‘lchab, bir kesish kerak”. Olti farzandni xushhulq qilib tarbiyalagan tajribali onaxon M. Jabborovaning aytishicha, “Rastalik paytida ota-ona bola bilan juda yumshoq muomalada bo‘lishi, uni qaysarligi tutganda past kelishi va jahllanishiga hyech qachon yo‘l qo‘ymasligi kerak”⁹⁰.

Besh farzandni el havas qiladigan darajada tarbiyalab o‘stirgan S. Turg‘unov ham bolaning o‘smirlilik davri tarbiyasi o‘ziga xos ekanligini aytib, bu paytda o‘g‘il bilan ota, qiz bilan ona yaqin munosabatda bo‘lishi, fikriga quloq solishi va qattiq nazorat qilish lozimligini ta’kidlaydi⁹¹. Axborotchimizga “agar farzand otaga do‘q qilsa, ota qanday yo‘l tutishi kerak? ” – deb so‘raganimizda, “o‘sha paytida ota indamay o‘zini bosishi va bola o‘ziga kelgandan so‘nggina qilgan ishi noto‘g‘riligini yotig‘i bilan tushuntirishi kerak.” – deb, javob berdi.

Xaqiqatdan ham o‘smirlilik davri juda murakkab davr bo‘lib, psixologlarning aniqlashicha, bu paytda yoshlarning fe'l-atvori, ruhiyatida keskin o‘zgarish paydo bo‘ladi. Chunki bu davrda o‘smir organizmida murakkab anatomik-fiziologik, ruhiy-emotsional o‘zgarishlar yuz beradi. Miyaning va muskullarning o‘sishi,

⁸⁹ Волков Г.Н., Баубекова Г.Д. Этнопедагогика. – Б. 33.

⁹⁰ Дала маълумоти. Хақиқат маҳалласи, апрель-2007й.

⁹¹ Дала маълумоти. “Хости хизир”маҳалласи, апрель-2007 й.

jinsiy bezlarning rivojlanishi bilan bog‘liq xolatlar o‘smirlarni toliqtirib, ularni ta’sirchan va serzarda qilib qo‘yadi⁹².

Psixolog P. I. Leventuevning fikricha, o‘smirlik davrida tormozlanish jarayoniga nisbatan uyg‘onish jarayonlari kuchli sur’atda sodir bo‘ladi. Ko‘pincha o‘smirlarda kuzatiladigan o‘zini tuta bilmaslik, birdan jo‘shib ketish, har narsaga mayl bildirish, qiziqish va beqarorlik, ba’zan ishchan va ba’zan “bekordan bekorga dangasa bo‘lib qolish” holatlarining asl sababi ana shundadir.⁹³ Namangan shahri aholisi orasida o‘smirlikning ana shunday muammosini hal qilish uchun qo‘llanadigan irim ham bor. Axborotchilarning aytishlaricha, qaysar va qo‘rs bo‘lib qolgan o‘smirlarni o‘ziga keltirish uchun, sholi poxolidan past olovda o‘t yoqib atala pishirish va uni nahorda bolaga ichirish kerak ekan. Bu irimning sharti shuki, ona toki atala tayyor bo‘lib uni bolaga ichkizmaguncha hyech kim bilan gaplashmasligi kerak. Mazkur irimni shunday izohlash mumkin-ki, atala ichirilishining sababi bu taom organizimni bo‘shashtiruvchi xususiyaga egaligi bilan bog‘liq bo‘lsa, olovning sekin yondirilishi va onaning hyech kim bilan gaplashmasligi imitativ – agik qarashlarni ifoda etadi.

Sakkiz nafar farzandni tarbiyalab, voyaga yetkazgan, 25 nafar nevara, 12 nafar chevaraning bobosi, tajribali otaxon D. Eshondadaevning fikricha, “-hamma narsa oiladan boshlanadi, eng katta tarbiya bu ota-onan namunasidir. Agar ota-onan bolani kaltaklamasa, farzand ham hyech qachon ularga qo‘l ko‘tarmaydi. Farzandni taltaytirmsandan, lekin, xo‘rlamasdan tarbiyalash lozim. Ayni paytda ota-onan va bola o‘rtasida “parda” bo‘lishi shart. Bolani yoshligidan pulga o‘rgatish uning tarbiyasini buzadi, shuning uchun unga faqat hisob-kitob bilan pul berish va tejamkorlikka o‘rgatish kerak”⁹⁴. Yana bir namunali oila sohibasi M. Murodovaning ta’kidlashicha, “bolani ta’lim tarbiyasidagi asosiy omil bu irsiyat”. Bu opaning fikricha, tirishqoqlik va o‘tkir zehnlilik bolalarga nasldan o‘tadi. Bolalarning tog‘alari va amakilari ziyoli, ilmli va iqtidorli bo‘lganlari uchun ham

⁹² Смирнов А.А. Избранный психологические труды. -М.: Педагогика, 1987. – Б. 38.

⁹³ Левентуев П.И. Боллиқдаги мураккаб давр. – Т., 1967. – Б. 9.

⁹⁴ Дала маълумоти, Хақиқат махалласи. 2007 й.

farzanlarining barchasi mакtabda ham, oliv o'quv yurtlarida ham eng ilg'or va odobli bolalar bo'lishgan.

Ibratli oila sohibi S.Turg'unov "bola tarbiyasidagi asosiy narsa, unga mehr berish, shirin so'z bo'lish va uni o'z holiga tashlab qo'ymaslikdir"-deydi. Asli oliv ma'lumotli pedagog bo'lgan Sodiq Turg'unov qo'shimcha ish sifatida duradgorlik bilan ham shug'ullangan va shu kasbni farzandlariga ham o'rgatgan. "Bolaga halol luqma berish kerak, aks holda bola tarbiyasi buziladi"-deydi hamsuhbatimiz⁹⁵.

Biz yig'gan ma'lumotlarga ko'ra, ko'pchilik qiz bola tarbiyasiga nisbatan o'g'il bola tarbiyasi mushkulroq degan fikrga ega. Lekin, besh o'g'il va bir qizni boshqalarga o'rnak bo'ladigan ahloq, odobli qilib tarbiyalagan X.Usmonovaning aytishicha, "gap bolaning qaysi jinsga mansubligida emas, balki unga bo'lgan munosabatda va beriladigan tarbiyada. Qo'ni-qo'shnilarining o'g'illari o'smir bo'lganda o'zgarib, qaysar bo'lib qolganini eshitganman, ammo men o'zim farzandlarim bilan bunday muammoga duch kelganim yo'q." Demak, yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa chiqarish mumkin; bola tarbiyasidagi asosiy omil bu ota-onaning tajribasi, bilimi va mahoratidir. Garchi o'smirlik davri tarbiyasi og'irroq bo'lsada, tajribali kishilar oqilona yo'l tutib muammolarga duch kelmaydilar. Asosiysi, ajdodlarimiz yaratgan milliy tarbiya an'analarini yo'qotmasdan avlodlarga yetkazishimiz shart.

Nima uchun Namangan shahri mahallalarida milliy an'analarimiz nisbatan yaxshi saqlanib qolgan degan savolga quyidagi omillarni sabab qilib ko'rsatish mumkin;

- islom diniga e'tiqodning kuchliligi;
- migratsiya jarayonlarining juda sustligi;
- aholining aksariyati bir millat – ya'ni o'zbeklardan tashkil topganligi;
- zamonaviy urbanizatsiya jarayonlari salbiy ta'sirining kamligi.

Bolani qanday tarbiyalash lozimligini bilish uchun savol berilganda, ota-onalarning aksariyati "yaxshi gap va nasihat" (36,5 %) hamda "qattiqqo'llik va meh-

⁹⁵ Дала маълумоти. "Хасти Хизир" махалласи-2007 й.

ribonlik” orasida (32,0 %) tarbiyalashni ma’qul ko‘rishlarini bildirdilar. “Bolani xarakteriga qarab” (27,5 %) va “qattiqqo‘llik bilan” (4 %) javob variantlari kamroq bo‘ldi. Hududiy jihatdan toshkentliklar “qattiqqo‘llik va mehribonlik” orasida (44,3 %), tarbiyalashni ko‘proq ma’qul **ko‘radilar**. Faqat qattiqqo‘llikni yoqlovchilar orasida ustunlik surxondaryoliklarda (6 %) bo‘ldi, namanganliklar esa yaxshi gap va nasihat bilan tarbiyalashni **istaydi (43,7 %)**⁹⁶. Demak, ushbu natijalar o‘zbeklar bola tarbiyasida ko‘proq nasihatga suyanishlarini va bolani o‘zini tutishiga qarab kerak paytida mehribonlik yoki qattiqqo‘llik qilinishini to‘g‘ri, deb baholashlarini ko‘rsatadi. Shuningdek, namangan-liklarning yaxshi gap va nasihat bilan tarbiyalashni ma’qul ko‘rishlari ota-onalarning bu borada ancha bosiqliklarini tasdiqlasa, toshkentliklarning “qattiqqo‘llik va mehribonlik” tamoyilini qo‘llashlari bolani holatiga qarab tarbiyalash lozim, degan tushuncha keng tarqalganini isbotlaydi.

Tajribali ota-onalarning fikricha, bolalarni tarbiyalashda ota-onaning bir xil fikrda bo‘lishi zarur. Ota bolasini ursa, jazolasa, ona o‘z himoyasiga oladi va aksincha. Bunda bola doimo ota yoki onadan himoya qidiradi. Unda o‘z xulq-atvori, xatolariga tanqidiy qarash shakllanmaydi. O‘zini otasi yoki onasi tomonidan asossiz jazolangan hisoblaydi va bora-bora ularni pisand qilmay qo‘yadi.

“Qaysi sababga ko‘ra urasiz va bu samaralimi?” deb bergen savol natijasi qu-yidagicha bo‘ldi: 41,5 % ota-onalar “jahl ustida uradilar”, so‘ng afsuslanadilar, chunki “bu noto‘g‘ri usul”, 35 % ota-ona ushbu jazo turini qo‘llamaydi, 23,5 % ota-onalar esa urishni “samarali”- deb biladi. “Jahl bilan urish so‘ng afsuslanish” javobi nisbati Surxondaryoda baland (42,5 %). Namanganliklarda bu jazoni “samarali”- deb bilish nisbati yuqori bo‘lsa, Toshkentda “urish tarbiya usuli emas” deb fikrlovchilar ko‘proq (44,3 %)⁹⁷.* Yuqorida keltirilgan savollarga berilgan

⁹⁶ Социологик сўров натижаси (ота-оналар), 9-жадвал.

⁹⁷ Социологик сўров натижаси (ота-оналар), 38-жадвал.*Жисмоний жазо масаласини бошқа халқлар мисолида кўрадиган бўлсак, масалан, Уралда ўтказилган тадқиқот натижаларига кўра, 8-синф ўқувчиларининг 15,1 % и ота-оналари жисмоний жазони афзал билишади. Кичик мактаб ёшидаги болаларга эса бу жазо кўп қўлланилади. Қаранг: Павлов Б. Микроклимат в семье: общение или отчуждение? // Молодой коммунист. 1979. № 3. С. 76.

javoblar tahlili ota-onalarning yoshi, ma'lumoti darajasi, jinsi va oiladagi bolalar soniga nisbatan ham ko'rib chiqilgan⁹⁸.

Ota-onaning o'zaro hurmatga asoslangan muomalasi bolalarda ham shu fazi-latlarni tarbiyalashning dastlabki namunasidir. Bunday oilada ota-onaning oila oldiga qo'yadigan talabi adolatli bo'ladi. O'rganilgan namunali oilalarning aksariyatida ota ichmagan, chekmagan va halol pul topgan. Bolalar yoshligidan mehnatga o'rgatilgan, ayniqsa hunarmandlar oilasi bo'lsa, bolalar o'z otalariga yordam bergenlar va hunar o'rganganlar⁹⁹. Ana shunday hunarmandlar oilasidan biri – Namangan shahridagi Ibragimovlar xonodonida ham ikki o'g'ilni hunarga o'rgatganlar, garchi ota bilan birga doimo ishlashsa ham, ota salobatli va kamgap bo'lgani uchun bolalar o'z fikrlarini ochiq bildira olmaganlar, ona orqali yetkaz-ganlar¹⁰⁰.

Ota-onsa namunasining tarbiyaviy kuchi benihoya katta. Qaerda ota-onsa mehnatga vijdanan yondashsa, samimiy, xaqiqatgo'y va shu kabi ijobiyl xis-latlarga ega bo'lsa, bolalarning ma'naviy axloqiy tarbiyasi o'z-o'zidan shakl-lanadi va bunda ota-onaning ortiqcha kuch sarflashiga xojat bo'lmaydi.

⁹⁸ Иловага қаранг: (ота-оналар) 7 ва 38-жадваллар.

⁹⁹ Дала ёзувлари. Тошкент шахри Самарқанд дарвоза маҳалласи. 2007 йил.

¹⁰⁰ Дала ёзувлари. Наманган шахри Хости-Хизр маҳалласи. 2007 йил.

Foydalaniqan adabiyotlar:

I. Rasmiy adabiyotlar:

- 1.1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2003. – B. 4.
- 1.2. Karimov I. A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid: barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997. – 425 b.
- 1.3. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – Toshkent: Sharq, 1998. – 32 b.
- 1.4. Karimov I. A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashamiz. 10–jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002. – 181 b.
- 1.5. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat–engilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
- 1.6. Karimov I. A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – 439 b.

II. Maxsus adabiyotlar:

- 2.1. Abdullaev O. Farg‘ona vodiysi: ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jarayonlari. – Namangan, 2000. – 292 b.
- 2.2. Akramov Z. Farg‘ona vodiysi. – Toshkent: Fan, 1957. – 87 b.
- 2.3. Alimov I. A. XVI–XVIII asrlarda Namangan bekligidagi madrasa, qorixona va maktablar tarixidan / Namangan tarixidan lavhalar. – Namangan, 2010. – B. 14–25.
- 2.4. Ata-Mirzaev O., Katanov I. Farg‘ona vodiysi shaharlari (demografiya to‘g‘risida ba’zi fikrlar). – Tashkent, 1972. – 32 b.

- 2.5. Vaxobova N. O‘zbekistonning yangi shaharlari. –Toshkent: O‘zbekiston, 1973. – 40 b.
- 2.12. Gubaeva S. S. Naselenie Ferganskoy doline v konse XIX – nachale XX. (etnokulturnoe protsessy) –Tashkent: Fan, 1991. – 130 s.
- 2.13. Ivanov P. P. Ocherki po istorii Sredney Azii. – Moskva, 1958. – 182 s.
- 2.14. Madrahimov Z. Sh. Qo‘qon xonligida savdo munosabatlari tarixi. – Toshkent: Yangi nashr, 2014.
- 2.15. Madrahimov Z. Sh. Namanganinng Qo‘qon xonligi savdo aloqalarida tutgan o‘rni. // Moziydan Sado. – Toshkent, 2008. – №2. – B. 28 – 30.
- 2.16. Madrahimov Z. Sh. Namangan–Qo‘qon xonligining iqtisodiy markazlaridan biri // “Tarix tilga kirganda...” Ilmiy to‘plam. – Namangan, 2008. – №2. – B. 19–25.
- 2.17. Mirzaliev E. Bazarova M. Namanganning XIX asr oxiri – XX asr boshidagi sotsial-iqtisodiy va madaniy rivojlanishi. – Toshkent: Qatortol-kamolot, 1998. – 168 b.
- 2.18. Ro‘ziboev T., Xojimirzaev M. Namangan oblasti. Spravochnik. –Tashkent: Uzbekistan, 1981. – 176 b.
- 2.19. Ruzibaev T. Xodjimirzaev M. Namanganskaya oblast. –Tashkent: Uzbekistan, 1981. – 166 s.
- 2.20. Sanaqulov X. Chust tarixi. Etnografik ocherk. –Toshkent., 1991. – 109 b.
- 2.21. Fayziev N. O‘zbekiston yangi shaharlarining aholisi. –Tashkent: Fan, 1964. – 36 b.
- 2.22. Qosimov Y. Namangan tarixidan lavhalar. (1917 yilgacha). –Toshkent: Fan, 1990. – 56 b.